

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI


VAZIRLIGI

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

O'zbek adabiyoti kafedrası

O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI

(pedagogika institutlarining III-kurs talabalari
uchun matn-qo'llanma)



Navoiy-2008

Tuzuvchlar :	Zebiniso Ahmedova , Zarif Quvonov
Ma'sul muharrir:	filologiya fanlari nomzodi, dotsent T.Xo'jayev
Taqrizchlar:	dotsent M.Farmonova dotsent A.Xolmurodov

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek filologiyasi fakulteti kengashi (2008-yil, 26-avgust 1-sonli majlis) qaroriga asosan nashirga tavsiya etilgan.

Navoiy davlat pedagogika instituti, 2008-yil

Mavzu: Nutq madaniyati fanining predmeti va vazifalari.

Reja:

1. Nutq madaniyati fanining predmeti.
2. Fanning maqsad va vazifalari.
3. Boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Nutq madaniyatining o`qituvchi faoliyatidagi o`rni.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Barkamol avlod orzusi. T, "O'zbekiston" 1997.
2. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent, "O'qituvchi" 1993.
3. E.Qilichev, B.E.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
4. N.Jo'maxo'ja. Istiqlol va ona tilimiz. T., "Ma'naviyat" 1998.
5. R.Qo'ng'irov, E.Begmatov, Yo.Tojiyev. "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" T., 1992.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan so'ng nutq madaniyatiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bugungi kun tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri ham nutq madaniyati asoslari fanini yuksak pog'onaga ko'tarish, uni rivojlantirishdir. Amaliy jihatdan bu fan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan sifatida to'g'ri va chiroyli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi. Shuningdek, chiroyli nutq tuzish qonuniyatlari, sirlari, til, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchiliklar va xatolar, nutqiy asarlarning ko'rinishlari, nutqning talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Nutq-arabcha so'zdan olingan bo'lib, kishilarning ijtimoiy aloqa quroli bo'lgan tildan foydalanib, xususiy suhbatda, umumiy majlis, uchrashuv va yig'inlardagi gapi yoki o'qib eshittirgan so'zlaridir.

Nutq-ma'lum maqsad bilan so'zlanadi va ma'lum bir g'oyaviy yo'nalishga hamda estetik ta'sir kuchiga egadir.

Nutq madaniyati- bu fikrlarni til vositasi bilan to'g'ri, ravon, aniq, ta'sirchan qilib bera olishdir.

Madaniyat -so'zi ham arabcha so'z bo'lib, shahar ma'nosini bildiradi. Fikrni izchil, ravon, ixcham va badiiy sodda ifodalagan nutq chiroyli nutqdir.

Alisher Navoiy ham til kishilarning o'zaro aloqa vositasi, u insonni hayvondan ajratuvchi asosiy belgilardan biri deb ta'riflaydi.

O'zbekiston istiqlolining eng buyuk ne'matlaridan biri sifatida ham til mustaqilligini ko'rsatish mumkin. Zero, til mustaqilligisiz erkin va ozod davlatning o'zini ham tasavvur etish mumkin emas. Shu ma'noda tilimiz jozibasi, uning inson hayotida tutgan o'rni beqiyos, muomala madaniyati nutq odobi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni ko'zda tutadi.

Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir qismidir. Kishi o'z nutqi, fikrlashi orqali qobiliyatini, dunyoqarashini, atrofidagi voqea-hodisalarga bo'lgan o'z munosabatini nomoyon qiladi. Nutq madaniyatini egallash tilning uslubiy (stilistik) me'yorlarini puxta bilish bilan bog'liq.

Nutq madaniyati- bu fikrlarni til-vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib bera olishdir. Keng ma'noda esa nutq madaniyati nutqiy ta'sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o'tkirlik va ifodalilikni bildiradi. Nutq madaniyati tushunchasi ikki xildir.

1. Nutqning adabiy til me'yorlariga mos kelishi darajasi.

2. Tilshunoslik fanining bir bo'limi, ya'ni adabiy tilni yanada takomillashtirish, me'yorlash bilan shug'ullanuvchi soha.

Fikrni til vositalari bilan to'g'ri, aniq va ta'sirchan bayon qilishning bosh qoidalariga nutq madaniyati asoslari deyiladi.

Uslubiy me'yorlarni yaxshi bilmay, ularni mukammal egallamay turib, madaniy nutqqa erishib bo'lmaydi.

“O'qituvch nutqi madaniyati” fanining maqsadi, vazifasi va tekshirish ob'ekti mavjud.

Bu kursning asosiy maqsadi ommaning umummadaniy saviyasini yuksaltirishga hissa qo'shish hamda maktab o'quvchilari va talabalarga nutq madaniyati tarixidan ma'lumot berish, ulkan notiqlar, adiblar, so'z ustalarining nutq madaniyatini rivojlantirish borasida qilgan ishlarini o'rganish va ularga baho berishdan iboratdir.

Kursning vazifasi nutq madaniyati va uslubiyat masalalari bo'yicha atroflicha tushuncha berish, kishilarning madaniy nutq malakasini shakllantirish shu bilan birga yaxshi nutqni baholash va targ'ib qilishdan iborat.

“O'qituvch nutqi madaniyati” kursining tekshirish ob'ekti ham mavjud. U tilda ma'lum me'yorga keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi. Hamda bu me'yorlarga amal qiladi, ma'lum ma'noda nazorat qilib boradi. Bunda nutqdagi yutuq va kamchiliklar ham tahlil qilinib, ularni tugatishning eng ma'qul yo'llari ko'rsatib beriladi. Umuman olganda, nutqning adabiy til bilan munosabati masalasi bu kursning asosiy xususiyatidir.

Bu o'rinda shuni ham qayd etish lozimki, nutq madaniyatining tadqiqot ob'ekti, uning nazariy metodi, maqsad va vazifalari haqida hozirgi zamon tilshunosligida turli-tuman mulohazalar, biri ikkinchisini inkor etuvchi fikrlar bildirilmoqda. Shuning uchun ham nutq madaniyati alohida fanmi yoki tilshunoslik fanining bir qismimi degan masala hozircha munozaralidir.

“O'qituvch nutqi madaniyati” kursining mazmuni quyidagicha:

1. Bir tilda so'zlash va yozish.

2. Fikrni sodda, aniq va tushunarli ifodalash.

3. Nutqning qisqaligi, ixchamliligi, aniqligi va milliyligini ta'minlash.

4. Til vositalaridan o'z o'rnida tanlab, maqsadga muvofiq foydalana bilish va hokazo.

Nutq madaniyati fanining shakllanishi birinchi marta Praga lingvistik to'garagi tomonidan o'rta qo'yilgan edi. Keyinchalik rus tilshunosligi Moskva va Leningrad maktablari olimlari tomonidan rivojlantirildi.

Bu sohada L.V.Sherba, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, S.I.Ojegov, Ya.N.Gvozdev, A.I.Yefimov, B.N.Golovin, Ya.I.Skvorsov kabi olimlar samarali mehnat qildilar.

Nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullanish o'zbek tilshunosligida 60-yillardan boshlandi. Qator ilmiy maqollar, qo'llanmalar nashr qilindi va bu borada jiddiy izlanishlar hozir ham davom etmoqda.

1969-yilda Toshkentda o'zbek tili nutq madaniyatiga bag'ishlab birinchi respublika konferensiyasida S.Irohmov, O.Usmonov, Q.Xonazarov kabi olimlar o'qigan ma'ruzalarda ham shu fan asosi belgilab berildi.

O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyatini o'rganish bo'yicha 1980-yilda "Nutq madaniyati asoslari" o'quv dasturi asosida R.Qo'ng'irov, E.Begmatov, Yo.Tojiyevlarning "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" kitobi "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan 1992-yilda nashr qilindi.

Nutq madaniyati-nutqning to'g'riligi, grammatika bilan uzviy bog'liqligidir. Nutq madaniyati deb yuritilayotgan tushunchani til hodisasi sifatida va nihoyat amaliy til jarayoni nutqiy jarayon sifatida aniqlashtirish lozim bo'ladi.

1. Tildagi mavjud til hodisasining nomi.
2. Nutq madaniyati talablariga javob beruvchi aniq nutqiy jarayonning ya'ni aniq nutqiy ko'rinishning nomi.
3. Madaniy nutq va u haqida kishilar ongida mavjud bo'lgan aniq tasavvurlarning nomi.
4. Tilshunoslikning ilmiy tadqiqoti bo'lgan ob'ektiv nutq madaniyati va u haqida mavjud ilmiy tasavvurlar va muammoning nomi.
5. Nutq madaniyati muammosini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik sohasini nutq madaniyati nomi tarzida talqin qilish mumkin.

Bir qator olimlarimiz nutq madaniyati tilshunoslikning bir bo'limidir degan fikrni ilgari surdilar.

Masalan: V.G.Kostamorov, V.S.Shvarskoplar nutq madaniyatini tilshunoslikning maxsus bo'limi deb asoslash adabiy tilning jonli normalarini tilning boy uslubiy imkoniyatlarini va ularning qo'llash qonuniyatlarini o'rganishni talab etishini qayd qiladilar.

Tilshunos R.A.Budakov yozuvchi T.N.Temofeyevning "Pravil'no li miu govorim" risolasiga yozgan taqrizida nutq madaniyatini filologik fan deb ataydi.

Tilshunos Petrushkov esa "Nutq madaniyati" fanining ilmiy tarmog'i sifatida tilshunoslik bilan bir qatorda estetika, odobnoma, ijtimoiy fanlar bilan ham hisoblashmog'i kerakligini ta'kidlaydi. Boshqa fanlar bilan yaqindan

aloqador bo'lgandagina nutq madaniyati o'zining mukammal taraqqiyotini yarata oladi va jamiyat uchun salmoqli ta'sirini o'tkaza oladi deb yozadi.

Hozirgi zamon o'zbek tilining fonetik, lug'aviy, grammatik, talaffuz (orfoepik) hamda ilmiy normalari birmuncha mukammal shakllanganligi o'zbek tili madaniyatining ulkan yutug'idir. Binobarin, milliy madaniyatning ajralmas, uzviy qismi bo'lgan nutq madaniyatining yuksak darajada bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbek tilshunosligi erishgan yutuqlardan biri shu bo'ldiki, nutq madaniyati alohida o'rganish ob'ekti qilib olindi va alohida fan sifatida nazariy asosga qo'yildi. Nutq madaniyatini agar masalaga til nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bu dastlab nutqning grammatik to'g'riligi demakdir.

Kishi nutqida noaniqlikka, ikki ma'nolilikka uzundan uzoqlikka yo'l qo'ymasligi, aksincha, qisqalik, aniqlik va soddalik uning o'lchovi bo'lishi lozim. O'zbek tiliga chetdan kirib kelgan birliklarning me'yorlanish sabablarini shu tarzda anglaydigan bo'lsak, so'zlarning paydo bo'lish omillarini ham to'g'ri tushunib olamiz.

Bizlarning nutqimiz qanchalik chiroyli, ravon bo'lsa, albatta har bir kishi o'zi ko'zlagan maqsadga erishadi.

Demak, har birimiz nutq madaniyatiga, muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Nutq madaniyati asoslari fanining o'z tekshirish ko'lamini va vazifalari mavjud. Bu fanning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til normalari va nutqni kommunikativ (aloqa uchun kerakli) fazilatlaridir.

Til normasi nutq nazariyasi asoslari fanidan markaziy tushunchadir.

Til madaniyatning asosiy tekshirish ob'ekti adabiy til normalari, asosiy vazifasi esa ushbu normadagi ikkilanishlarni bartaraf etmoqlikdir.

Nutq madaniyati asoslari fani adabiy til normalarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishi, undagi ba'zi unsurlarning eskirishi, ular o'rnida jamiyatning yangicha talablariga javob beradigan yangi normativ unsurlarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi.

Ma'lumki, har bir davrning adabiy til normalari mavjud bo'lgan. A.Navoiy ijod qilgan XV asrda o'z til normalari mavjud bo'lgan bo'lsa, XIX asr adabiyotining ilg'or vakillari o'z asarlarini xalq tiliga yaqinlashtirishga intilib, adabiy tilga yangi normativ hodisalarni kirib kelishiga sabab bo'ladilar.

Nutq madaniyati fani tilning hamma sohalari bo'yicha adabiy til normalarini tadqiq qilib boradi. Bu fan o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatadi.

Bu fan grammatika, leksikologiya, semasiologiya, mantiq, ruhshunoslik, estetika, badiiy adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid fanlari bilan ham bog'liqdir.

Nutq madaniyati asoslari fanining asosiy tayanchi hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatikasidir, chunki nutqning to'g'riligi uning asosiy fazilati bo'lib, u grammatik normalarga asoslanadi.

Til va nutq o'zaro bog'liq hodisalar. Til nutq uchun moddiy material. Shu material asosida nutq tashkil topadi. So'z, morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy material hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma'lum tovush to'plamida namoyon bo'ladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy materialdir. Tilning ruhiy hodisaligini uning ongda saqlanishi ko'rsatadi, moddiyligini esa nutq jarayonida yuzaga keluvchi mavjud tovushlar belgilaydi. Xotiramizda saqlangan qoidalaridan tezkorlik bilan foydalanib, biror fikrni bildirish uchun so'zlar va grammatik ma'no tashuvchi morfemalardan so'z shakllarini va gaplarni hosil qilamiz.

Nutq tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda mavjudlikka aylangan fikrdir. Nutq nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, haqiqatga aylanadi.

Nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, kishilar yuksak madaniyatli bo'lishi uchun nutq madaniyatini yetarli darajada egallamog'i zarur. Ayniqsa o'qituvchilik faoliyatida nutq madaniyatining o'rnini beqiyos. Nutq madaniyatini chuqur egallamagan o'qituvchi o'z maqsadga to'liq yeta olmaydi. Bugungi kunda ikki qutb o'rtasida mafkuraviy kurash ketmoqda. Bu mafkuraviy kurashning asosiy quroli ham tildir. Shuning uchun bugungi kun yoshlarining tili har qachongidan ham o'tkir va keskir bo'lishini davr taqozo etmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish mumkin"-deganlar. Demak, yoshlarni jaholatga qarshi tarbiyalash vositasi ham nutqdir. Davrning dolzarb vazifasi bolani fikr qaramligidan qutqarish zarur. Chunki prezident ta'kidlaganidek, "Eng dahshatli-fikr qaramligi tafakkur qulligi". Shuning uchun o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida bolani mustaqil fikr yuritishga o'rgatish kunning muhim talabi.

Til madaniyati deyilganda, uning so'z boyligi sintaksisining taraqqiyoti va boyishi darajasi, so'z ma'nolarining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang-barangligi tushuniladi. Nutq madaniti, uning aloqaviy fazilatlari yig'indisi, tuzumi bo'lib, ular til madaniyati, til faoliyatida qiynalmaslik, matnning mazmuniy vazifasi va imkoniyati kabi har xil sharoitlarga bog'liq. Til madaniyati til vositalarining boyligi va rang-barangligidan iborat bo'lib, bu tildan foydalanuvchilar ongida yashaydi. Qaysi shaxs til madaniyatida tegishli vositalarni o'zlashtirgan bo'lsa, uning nutqi shu darajada madaniyatli bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nutq madaniyati asoslari fanini o'rganish bo'lajak o'qituvchilar uchun zaruriy ehtiyojdir.

Mavzu: Nutq madaniyatini o`rganish tarixi.

Reja:

1. Nutq madaniyati va notqlik san`ati.
2. Qadimgi Yunoniston va Rimda notqlik san`ati.
3. Notqlik san`atining g`arbda rivojlanishi.
4. Sharqda notqlik san`ati.
5. Bugungi kunda nutq madaniyati masalalarining o`rganilishi.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov A. Notqlik san`ati. T., 1967.
2. Inomxo`jayev S. O`tmish Sharq notqligi. T., 1972.
3. Oripov K., Obidova M. Ifodali o`qish. T., 1991.
4. O`rinboyev B, Soliyev A. Notqlik mahorati. T., 1984.
5. Nusratullo Atoulo o`g`li Jumaxo`ja. Istiqlool va ona tilimiz. T., 1998.

Nutq madaniyati va notqlik san`ati o`zaro chambarchas bog`liq tushunchalardir. Notqlik san`ati alohida mahorat va qobiliyat talab etadi. Har qanday madaniy nutq egasi mohir notiq bo`la olmaydi. Shu sababli xalq orasida so`zga chechan, so`zga usta, so`zamol, gapga usta, chiroyli gapiradi iboralari ishlatiladi. “O`qituvchi nutqi madaniyati” fani bo`lajak o`qituvchilarga umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo`lgan nutq madaniyatini egallash yo`lida eng yaqin maslahatdoshga aylanadi. Chunki bugungi mavkuraviy kurashning o`tkir quroli bo`lgan tilning har qachongidan ham keskir bo`lishini davr talab qilmoqda, bo`lajak o`qituvchidan mohir nutq egasi bo`lish talab etilmoqda. Shu ma`noda bu fan notqlik san`ati tarixini ham mukammal darajada o`rganishga harakat qiladi.

Notqlik – san`atning eng qadimgi turlaridan biridir. “Tinglovchilarga biror narsa- hodisani tushuntirish, isbot etish yoki ularning hissiyotiga, tushunchasiga ta`sir qilish niyatida so`zlangan nutq notqlik faoliyatiga kiradi. Bu hodisani san`at darajasiga ko`tara olgan har bir shaxs notiqdir”¹.

Notqlik san`ati dastlab Misr, Ossuriya, Vavilon, Hindistonda paydo bo`lan. Eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllangan. Yunonistonda demokratiya tuzumining o`rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud ishlari va yig`ilishlarida respublikaning har bir ozod kishisi erkin nutq so`zlash huquqiga ega bo`lgan. Davlatni boshqarishda qatnashishni xohlagan har bir shaxs chiroyli so`zlash san`atini egallashga majbur bo`lgan va bu narsa ehtiyojga aylangan.

Mashhur notiq Sitseron: “Tarixda yo yaxsh harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo`lish kerak”, degan edi. Bunda notqlik san`ati sarkardalik san`atiga

¹ Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002, 7- bet.

tenglashtiriladi. Plutarx ham notiqlikning nihoyat darajada og'ir, sermashaqqatliligini tan olib, bu san'atni hayotiy zaruriyat deb hisoblaydi.

Sud ishlarida o'rnatilgan tartib ham bu san'atning yuksalishida katta turtki bo'ldi. Chunki sud jarayonida javobgar o'ziga qo'yilayotgan aybning asossizligini isbotlab gapirishi, da'vogar esa o'z fikrida qattiq turishi, uni qoralashi shart edi. Ammo hamma ham chiroyli nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lmaganligi sababli, nutq matnlarini yozib beradigan bilimdon kishilar – "logogrflar" ga ehtiyoj tug'ildi. Oradan biroz vaqt o'tib, tantanali nutq – epideytik nutq uslubi paydo bo'ldi. Logogrflar bunday nutq matnlarini tayyorlash uchun o'zidan oldin o'tgan salaflarining merosiga va xalq og'zaki ijodiga murojaat qila boshladilar. Notiqlik san'ati shu tariqa asta-sekin shakllanib, badiiy adabiyotning ravnaqida katta vazifani bajardi, tragediya, komediya, roman janrlarining paydo bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

"Bulardan tashqari, notiqlik san'atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, notiqlik san'ati nazariyasidan iborat bo'lgan "Ritorika" ilmining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdagi barcha shoirlar va notiqalar shu maktabdan, ya'ni ritorika maktabidan ta'lim olganlar"¹

Notiqlar tomonidan yaratilgan matnlar nasriy va poetik ijod namunasi bo'lib, Aristotel, Demosfen, Sitseron kabi ijodkor notiqlarning nomi jahonga mashhur bo'lgan.

Aristotel (384-322)- Arastu nomi bilan O'rta Osiyoda ma'lum va mashhur bo'lgan Aristotel eramizdan avvalgi, 384-yilda Makedoniya yarim orolidagi Xalqidik Stagirda tug'ilgan. Uning otasi Nikomax Aleksandr Makedonskiy bobosi podsho Aminti II saroyida shifokorlik qilgan. 17 yoshida Afinaga kelib, mashhur olim Platonga shogird bo'lgan, 347-yili Proaddan o'tib Asosga boradi. Unga zo'ravon, zolim Germiy homiylik qiladi. Germiy vafotidan so'ng, Lesbos yarim orolidagi Mitilen shahriga ko'chib o'tadi. 342-yilda shoh Filipp o'g'li makedoniyalik Aleksandr tarbiyasi uchun Aristotelni ma'sul qilib belgilaydi. Olim bu yerda falsafa maktabini ochadi, katta kutubxona tashkil etadi.

Buyuk olim "Poetika" nomli mashhur asaridan so'ng, 330-yilda Afinada "Ritorika" kitobini yozadi. Anaksemen "Ritorika" nomli qo'llanma, Lampsak ham shu nomdagi chiroyli so'zlash nazariyasi bo'yicha ilmiy mulohazalardan iborat asar yozgan edi. Aristotel esa "Ritorika" asarini uch kitobdan iborat qilib yaratadi. Chiroyli so'zlash, ishontirish metodlari haqidagi fikr-mulohazalar birinchi va ikkinchi kitobda bayon etilgan bo'lsa, uchinchi kitobda nutq mantiqiga katta e'tibor beriladi.

Olimning fikricha, notiq tilidagi turli "qorishmalar" ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffuz qilinishi, jumalarning mantiqan har xil tuzilishi so'zlovchining katta xatosidir. Bunda har bir jumla asosiy fikrni ifoda etishga qaratilishi, ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo'lishi talab

¹ Oripov Q, Obidova M. Ifodali o'qish. T, 1991.

etiladi. Olim notiqning hissiyot bilan soʻzlashi, mulohaza yuritayotgan fikrining tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil boʻlishini alohida uqtiradi. Aristotel notiqning jamoani oʻziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba soʻzlar bilan lirik chekinish qilib tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli koʻrgazmali qurollardan foydalansa, badiiy vositalardan epitet, chogʻishtirish, metaforalarni qoʻllasa, nutqining taʼsirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar koʻpayib ketib, tinglovchini zeriktirib qoʻymasligi kerakligini ham taʼkidlaydi.

Aristotel notqlik sanʼatini egallashni besh qismga boʻlib oʻrgatadi:

1. Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash).
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi).
3. Materialni eslab qolish (oʻzlashtirish).
4. Materialni soʻz yordamida toʻgʻri aks ettirish.
5. Materialni toʻgʻri talaffuz etish.

Demosfen (384-322)

Eramizdan avvalgi 384 - yilda Afinada dunyoga kelgan buyuk notiq Demosfen oʻz umrini Vatanining gullab-yashnashiga bagʻishlagan ulugʻ davlat arbobi edi. Otasining ismi ham Demosfen boʻlib, qurol-yaroq ustaxonasining egasi edi. Boʻlajak notiq 5 yoshga toʻlganida otasi vafot etadi. Demosfen va singlisiga otasidan katta meros qoladi. Ammo ular kichkina boʻlganligi sababli meros va bolalar tarbiyasi togʻasiga topshiriladi. Barcha boyliklarni qoʻlga kiritgan togʻasi Demosfen tarbiyasi bilan qiziqmaganligi uchun u nimjon boʻlib oʻsadi. Boʻlajak notiq voyaga yetgach merosni togʻasidan talab qiladi. Ammo togʻasi unga meʼrosni toʻliq qaytarib bermaydi. Merosni togʻasidan toʻliq ololmagan Demosfen uni sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afina davlati qonunlarini, ravon soʻzlash, davosining toʻgʻriligiga kishilarni ishontirish uchun notqlik sanʼatini oʻrganadi. Zamonasining meros ishlari boʻyicha mashhur advokati boʻlgan Isey maktabida 4 yil taʼlim oladi. Eramizdan oldingi V asrda yashagan, Pelopan urushida ishtirok etgan va uning tarixini yozgan Afina tarixchisi Fukididnin, faylasuf Platonning asarlarini puxta oʻrganadi. Fukidid asarlarini 8 marta qayta koʻchirib yodlab oladi. Oʻqishni tugatgach, vasiylari bilan sudlashadi va sud 5 yil davom etadi. Dastlab boʻlajak notiq muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Chunki uning tovushi juda past boʻlib, bir oz duduqlanar, “r” harfini talaffuz etolmas, mujmal gapirar edi. Avval boshqalarga sudda soʻzlanadigan nutqning matnini yozib beradi. Soʻng oʻz nutqi ustida tinimsiz ishlaydi. Yekasini qimirlatib turish odati boʻlib, koʻpchilik orasida oʻzini toʻgʻri tuta bilmas edi. Demosfen bu kamchiliklarni astoydil tugatish uchun ter toʻkib ishlaydi. Birinchi, ikkinchi nutqi ayanchli holda tugaganligi sababli uzoq muddatli tinimsiz mashq qiladi. Mana shu mehnatlari samarasida mashhur notiq boʻlib yetishadi. Lekin hech qachon tayyorgarliksiz nutq soʻzlamaydi, oldindan yozib qoʻyilgan matnni yodlab olar, har bir soʻz ustida puxta oʻylar, jummalarni aniq va chiroyli tuzishga

harakat qilar edi. U hech vaqt bo'lmag'ur safsatalarni yoqtirmas, xotirjamlik bilan tinglovchilarning fikrini o'ziga tortar edi. 30 yoshli Demosfen davlat ishlarida ham faol qatnashadi. Vatanining dushmani – makedoniyalik podsho Filippga qarata nutq so'zlaydi. Afina Makedoniya rahbarligiga o'tkach uning dushmanlari bosh ko'taradi. Xalq partiyasi Demosfenning vatanparvarligini qadrlab uni “Oltin gulchambar” bilan taqdirlashga tavsiya etgan edi. Bu qarorga Makedoniya tarafdorlari qarshi chiqadi. Mashhur notiq Esxil majlis qarori ustidan sudga ariza yozadi va Demosfenni qoralab so'zga chiqadi. “Gulchambar”ni himoya qilish maqsadida so'z olgan Demosfen Vatanining gullab-yashnashi uchun tinmay kurashganini, Esxilning sotqinligini yorqin nutqida obrazli tarzda tasvirlab beradi. Sud hukmiga ko'ra Esxilga katta miqdorda jarima solinib, Afinadan badarg'a qilinadi. Biroq Makedoniya bilan Afina o'rtasida boshlangan urushda afinaliklar mag'lub bo'ladi. Demosfen sirtidan o'limdan mahkum etiladi. U Kalavri oroliga qochib borib, Poseydon obodatxonasiga yashirinadi. Dushmanlari unga bo'lmag'ur va'dalar berib Antipatra huzuriga olib bormoqchi bo'ladi. Bu yovuz niyatni vahmlagan notiq zahar ichib (uyiga xat yozish bahonasida, ibodatxonaning ichkarisiga kirib) eramizdan oldingi 322 - yil dunyodan o'tadi.

Sitseron (103-43)

Mark Tuliyl Sitseron eramizdan oldingi 103 – yilda Rimdan uzoq bo'lmagan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keladi. Otasi uning yaxshi ta'lim-tarbiya olishi uchun Rimga ko'chib keladi. Yunonistonning mashhur so'z ustalari Lisiniy Krass va Mark Antoniy kabi notiqlardan so'z san'atining nozik sir-asrorlarini o'rganadi. Shuningdek, u Ezop va Rossiy kabi aktyorlardan ham ta'lim oladi. 25 yoshida 1-marotaba xalq oldida nutq so'zlaydi. Biroq uning nutqiga davlat boshliqlaridan Sull hamda Katt ismli mashhur notiq qarshi chiqadi. Shundan so'ng u falsafa va ritorika ilmlarini chuqurroq o'rganish maqsadida zamonasining mashhur notig'i Antonio Askolanskiydan ta'lim oladi. Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini ilm o'rganish uchun kezib chiqadi.

Sitseron Osiyoda notqlik san'atini o'rganib yurgan vaqtda Rim hukmdori Sull vafot etadi. Yosh notiq Rimga qaytib keladi, 31 yoshidan boshlab davlat ishlarida ishtirok etadi. U konsullik lavozimiga saylangach Rull tomonidan qabul qilingan senat qonunlarini qattiq qoralaydi, Rull tarafdorlarini o'ldirib yubordi. 59-yil uning o'rniga Sezar konsul etib saylangach, Rull proektiga o'xshash qonunlar qabul qilinadi. Gabini, Pizonlar o'zlari konsul bo'lib ish boshlagan 58-yilning dastlabki davrida Sitseronni Rimdan badarg'a qilishga harakat qiladi.

Oradan ko'p o'tmay, mashaqqatli mehnat samarasi sifatida uch kitobdan iborat “Notiqlar haqida” asari dunyoga keladi. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan bo'lib, Lisiniy Krass, Mark Antoniy Yuliy Sezar, Strabon, Katull, yurist Stsevola va uning shogirdlari Katt, Sulnisiy Ruflarning ijtimoiy va siyosiy nutqlari, ularning notqlik san'ati hamda bu san'atning eng muhim

masalalaridan tortib siyosiy muammolargacha bo'lgan qimmatli fikr-mulohazalarni o'z ichiga oladi.

Notiq davlat ishlarini chuqur tushunadigan, xalq qayg'usiga hamdardlik qiladigan davlat arbobi bo'lishi kerakligi o'qtiladi. Shuningdek, Sitseron notiqning odamlar diliga qo'rquv, g'azab, qayg'u sola bilishi, ba'zan hayajonli holatlarda kishilarni xalos qilib, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uyg'ota bilishi kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Sitseron "Brut" (47-yil), "Notiq" (56-yil) kabi asarlarida Rim notiqlik san'ati tarixi haqida fikr yuritadi. Notiqning asosiy maqsadi-tinglovchi zavqini uyg'otib, o'ziga moyil qilishdan iborat. Sitseron fikricha, kimki jo'n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o'rta darajada, ulug' hodisalar haqida shavq-zavq bilan gapirsa, shu odam so'z san'atining chinakam ustasi bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

Poeziya tilining vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning, unli va undosh tovushlarning almashinuvi, bir so'zning oxiri va ikkinchi so'zning boshida ikki unlining qator kelishiga yo'l qo'ymaslik, so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, grammatik qoidalarga e'tibor kabi muhim masalalar ham notiq asarlarida o'z ifodasini topgan. Sitseron fikricha, notiq quyidagi xislatlarga ega bo'lmog'i lozim:

1. Notiqlik o'zi juda dadil va aytgan gaplariga amin bo'lishi kerak.
2. Nutq to'la isbotlanishi lozim.
3. Nutqdagi hamma narsa muhim hisoblanishi kerak.
4. Nutq materialini sidqidildan to'plash va idrok etish zarur.

5. Nutq materialini joylashtira olishi va tushunishga oson bo'lishini ta'minlashi darkor.

Sitseronning eng sevgan usuli-tinglovchini toliqtirib qo'ymaslik uchun ko'tarinki uslubni bir parda pasaytirib, sud ishiga aloqador kishilarning goh salbiy, goh ijobiy xarakteristikasini berish, mashhur zotlar haqida biron latifani eslatish lozim bo'lsa bir hayotiy manzarani, dramatik voqealarni eslash, hikmatli so'z, maqol va qochiriq gapni qistirib o'tishdir.

Sezar vafotidan so'ng, uning nabirasi Oktavian davlatni boshqaradi. Notiqning dushmanlari uni qatl etishni talab qiladi. Shunday qilib Sitseronning avval o'ng qo'li qirqib tashlanadi, so'ng boshi tanasidan judo etiladi.

O'rta asrlarda din ahillari o'rtasida Vasiliy, Grigoriy Bogoslov, Ioani Zlot ous, Avreliy Avgustinlar notiqlikda shuhrat qozonadi.

XI-XII asrda "universitet notiqligi" rivojlandi. Dorulfunun tarix fani o'qituvchisi Yan Gus progressiv fikrlari uchun gulxanda yondirilgan, Duns Skott (Oksford dorulfununini magistri), falsafa o'qituvchi parijlik Per Abelerlar shu san'at bilan shug'ullangan. Florensiyalik monax Savonarola ham otashin nutqlari uchun gulxanda yondirilgan.

XIX asrda Fransiya, Italiya, Olmoniya, Avstriyada burjua demokratik inqilobining g'alabasidan keyin notiqlik rivojlandi. Notiqlar insonning mehnati, aql-zakovatini ulug'lab, uning kelajagini himoya qiladilar.

Rossiya tarixida notiqlik san`ati Pyotr I davrida ancha kuchaydi. XVII-XVIII asrlarga kelib, rus notiqligi jonlana boshlandi. Bu davr notiqligida 5 ta yo`nalish mavjud edi.

1. Yuqori doiradagi dvoryanlar orasida mavjud bo`lgan saroy notiqligi.
2. Din notiqligi.
3. Xalq notiqligi (xalq qo`zg`oloni rahbarlarining notiqligi).
4. G`arbiy notiqlik.
5. Diplomatik notiqlik.

Manbalarda ko`rsatilishicha hatto Peyotr I davrida nutqida nuqsoni bor kishilar o`qituvchilik bilan shug`ullanishi ta`qiqlangan.

Nutq madaniyati borasida rus olimi Lomonosovning xizmatlari beqiyos. Olimning xizmatlari tufayli nutq madaniyatiga doir jiddiy nazariy fikrlar o`rtaga tashlandi, uning amaliy ahamiyati nimada ekanligi ko`rsatib berildi, rus tilining lisoniy boylklari asosida bu soha ijodiy rivojlantirildi. Faqat 1920-1930-yillargagina kelib rus tilshunosligida nutq madaniyati muammosi ilmiy masala sifatida ko`tarildi, 1950-yillarga kelib bu sohaga qiziqish kuchaydi. Bunda rus tilshunoslari G.O.Vinokur, Ye.D.Polivenov, B.A.Larin, I.Sh.Ojegov, V.V.Vinogradov, L.V.Shcherba, V.G.Kostomarov, L.I.Skvorsov, B.N.Golovin va boshqalarning xizmati katta.

Nutq madaniyati muammosining paydo bo`lishi o`zining dastlabki davrida ikkita lingvistik maktab (tilshunoslik) bilan aloqada bo`ldi.

1. Rus tilshunosligi maktabi.
2. Pragi lingvistik maktab.

Sharqda notiqlik san`at.

Musulmon Sharqda nutq- va`z, notiq-voiz deb yuritilgan.

IX-XV asrlarda yashagan Xorazmiy, Farog`iy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshg`ariy, Navoiy kabi ulug` siymolar O`rta Osiyo xalqlarining dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflarda bo`lishi uchun xizmat qilganlar. Sharq tarixida Uyg`onish davri hisoblangan bu davrda notiqlik san`ati ham rivojlangan. Abu Nasr Forobiy (837-950) Ibn Sino (980-1037) kabi olimlar mashhur notiq ham bo`lganlar.

XI asrda Kaykovus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma" da ham (1082-1083) notiqlik ulug`langan. 44 bobdan iborat bu asarning 6,7-boblari so`z odobi haqidadir deb nomlangan.

Beruniy "Geodziya", Abu Abdulloh al- Xorazmiy "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlar kaliti") asarlarida bu san`atga alohida e`tibor berganlar.

Abu Nasr Forobiy to`g`ri so`zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, go`zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika, mantiqning ahamiyati katta ekanligini ta`kidlaydi. Olim bilimlarning birinchisi jismlar va hodisalarga ism berish, ikkinchisi grammatika (jismlarga berilgan ismlarni tartibga solishni) uchunchisi mantiq (xulosa chiqarish uchun darak gaplarni joylashtirish) dir deb

fikr yuritadi. Birinchi ism beruvchi til haqida ilmlar, ikkinchi natijalarni ifodalovchi hikmatli soʻzlar va nutq qanday tuzishni oʻrgatadi, uchinchi xulosalar yordamida yangi narsalarni bilib olishni oʻrgatadi.

Oʻrta Osiyoda Voiz Muhammad Rafiʼ (“Abvobul jinon”), Voiz Qazvinii (“Zilolu maqol”), Voiz Shirvonii (“Ahsanul ahodis”), Muhammad Bobur binni Muhammad Voiz (“Hidoyatul-taqvim”), Qudrati Sindii (“Anisul-voizin”), Mulla Kala Voiz Samarqandii (“Ravzatul-voizlik”), Qozi Oʻshii (“Miftoxun-najjoh”-“Soʻzning kaliti”) kabi mashhur notiqlar yetishib chiqqan. Shveysar olimi Adam Mesning maʼlumotiga koʻra, avval podshohlar el oldiga chiqib, davlat tuzumi, oʻz siyosatlari kabi mavzularda nutq soʻzlashi lozim boʻlgan. Ularning nutq matnlarini saroydagi devonul insho xodimlari yozib bergan. Juma kuni nutq soʻzlash shart boʻlgan. Vaqtlar oʻtishi bilan bu ish maxsus soʻz ustalariga topshirilgan.

Mavlono Fahriddin Ali Safiining “Latoyifut-tavoyif” asarida Mavlono Irshod haqida bir hikoya keltiriladi. H.Boyqaro Sheraz shohi Shijoʻ oldiga munozara olib borish uchun Mavlono Irshodni yubordi. Notiq bu vazifani sharaf bilan uddalaydi. Masjidi Jomeda nutq soʻzlab, hammani yigʻlatadi, soʻng hammani kuldiradi.

Yana mashhur notiqlardan biri fargʻonalik notiq Qozi Oʻshiidir. U Oʻsh shahrida qozilik lavozimida ishlagan. Erondagi Siyiston viloyati xalqi qattiqqullik bilan dong chiqargan edi. Qozi Oʻshii ular koʻngliga soʻz topib, xalqning mehr xazinasini ochadi va hurmatga sazovor boʻladi. Navoiy zamonasida yashagan uch notiq haqida maʼlumotlar bor.

Mavlono Riyoziy

Mavlono Riyoziy Zove deb atalgan viloyatda oʻsgan boʻlib, oʻz bilimi bilan qozilik lavozimiga koʻtariladi. Insonparvarlik qarashlari tufayli qozilik lavozimidan chetlashtiriladi, gʻariblikda, taʼqib ostida hayot kechiradi. Uning nutqida hamdarlik tuygʻulari kuchli boʻlgan. Nutq soʻzlash jarayonida yigʻlash darajasiga yetib borgan. Shuningdek, u zamonasining isteʼdodli donishmandi, dunyoviy fanlar bilimdoni, mashhur pedagog sifatida shuhrat qozongan.

Husayn Voiz Koshifiy Eronning shimoliy-sharqidagi Sabzavor shahrida tugʻilgan. Voiz Koshifiy koʻp fanlarni egallagan, mashhur olim boʻlgan. “Javohirut tafsir” yoki “Tavsiri Husayniy”, “Mavohibud dunyo”, “Lubbi lubob”, “Anvari Suxaylii”, “Ravzatush shuhado”, “Dah majlis”, “Ahloqi Muhsiniy”, “Mahzanul insho”, “Sabo”, “Koshifiya”, “Asrori Qosimiy”, “Hotamnoma”, “Ixtiyoriot”, “Matlaʼul -anvor” kabi asarlar muallifi.

Shu qadar mashhur voiz boʻlganki, uning nutqini tinglash uchun turli tomonlardan odamlar kelgan notiqning ovozi etib borolmagan oʻrinlarda uning ichki ruhiy holatini turli holatlar orqali ifodalanishini kuzatganlar. Uning oʻgʻli Faxriddin Ali Safii “Latoyifut-tavoyif” asarida otasi haqida maʼlumotlar beradi. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro bu voizning mahoratiga qoyil qolganliklari uchun hatto oʻz asarlarini rasmiy ijro etish uchun bu ishga Husayn Voiz

Koshifiyni munosib ko`rganlar. 898 (1492) yil 8 noyabrda A. Jomiyning dafn etish marosimida Navoiy o`zining tarkiband-tarixini va 7 band 140 misradan iborat marsiyani o`qib eshittirish uchun unga topshiradi. Voiz Koshifiy jadval asosida ishlagan. Xondamirning aytishicha, juma kuni Hirotning markaziy chorsusida shoh namozgohida va`z aytsa, shu kun peshindan keyin Navoiy masjidida, seshanba kuni Sulton Husayn madrasasida, chorshanba kuni pir (Muraj) Mujarrad Xoja Abdul Valid Ahmad mozori boshida, payshanba kuni Sulton Ahmad Mirzo mozori boshida nutq so`zlagan.

Bu narsa notiqning nihoyatda bilimdon, serg'ayrat ekanligidan dalolatdir.

O`zbek harbiy notiqlarining eng zabardasti Boburdir: "Mavlono Bobur Mirzo nutq so`zlaganda so`z bilan tog`ni narm aylardi" (Muhammad Solih)

Notqlik san`ati tarixi ulkan xazina bo`lib uni o`rganish hozirgi kunda ham muhimdir. "Husayn Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning muxlisi, shogirdi va do`sti bo`lgan. U "Tavsiri Husayniy" va "Javohir ut-tafsir at-tuhfat ul-Amir" nomli tafsir asarlarini Alisher Navoiyga bag`ishlab yozgan"¹.

"...Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta o`rganish, uning lug'aviy boyligi va grammatikasini chuqur egallash, mantiqli so`zlashni o`rganish, nutqning ichki (mazmun) va tashqi (shakl) ko`rinishiga birday e`tibor berish, go`zal va ta`sirchan nutq tuza bilish, nutq boyliklarini maqsadga muvofiq hamda o`rinli ishlatish vazifalarini qo`yadilar va ularning ijrosini chuqur tahlil etadilar"².

Bugungi kun o`qituvchisi notqlik san`ati tarixini chuqur o`rganmog`i, o`z amaliy faoliyatida foydalanmog`i maqsadga muvofiqdir.

Mavzu: O`zbek adabiy tilining me`yorlari

Reja:

1. Nutq madaniyati va adabiy me`yor o`lchovi.
2. Adabiy til me`yorlari.
3. Nutq odobi-umumiy axloqni belgilovchi mezon.
4. O`qituvchi nutqining adabiy me`yorlarga mosligi.

¹ Nusratullo Atoulla o`g`li Juma Xo`ja Istiqlol va ona tilimiz. T., 1998, 55-bet.

² Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993, 14-bet.

Adabiyotlar:

1. Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
2. Qo'ng'irov R, Begmatov E. Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1992.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
4. Begmatov E., Boboyev A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. T., 1983.
5. Tojiyev Yo, Hasanova N, Tojimatov H, Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1994.

Nutq madaniyatiga erishishning asosiy omili tilni, ayniqsa adabiy til me'yorlarini egallash, ulardan unumli va o'rinli foydalanishdir. Hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilgan nutq aniq, to'g'ri va ta'sirchan holda tinglovchiga yetib boradi.

Me'yor-so'zning mavjud bo'lgan ma'nosi, fonetik tuzilishi. S.I.Ojegov fikricha, "Me'yor-bu ijtimoiy jarayonda birga mavjud bo'lgan, bor bo'lgan, yangi paydo bo'lgan yoki o'tmishning kam ishlatiladigan til unsurlarini (lug'aviy, talaffuz, morfologik, sintaktik) tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali til vositalari yig'indisidir, keng ma'noda bu unsurlarni baholashdir". Adabiy me'yor o'z holicha shakllanadi. Uning shakllanish va taraqqiyotiga tilning tarkibiga kiruvchi lahja, shevalar turlicha hissa qo'shadilar. Qaysi hududda savdo, fan madaniyat taraqqiy etgan bo'lsa, me'yorga ham o'sha hududdagi shevalarning ulushi ko'proq bo'ladi. Me'yor til qurilishi unsurlarining hammasiga tegishli. Adabiy me'yor umumiy me'yordan olinadi, unga suyanadi. Adabiy me'yor umumiy me'yorning xususiy ko'rinishi bo'lgani uchun undan hajm jihatidan kichikdir.

Og'zaki adabiy normaning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, ertakchi, latifachi, dostonchi, xalq shoir-baxshilari katta hissa qo'shadilar.

Nutq madaniyati adabiy me'yorlarni tadqiq etar ekan, u me'yordagi mustahkam va zaif o'rinlarni belgilaydi. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi.

So'zlovchi yoki tinglovchi gapirganda yoki eshitganda ma'lum odob, axloq me'yorlariga rioya qiladi, chiroyli va ta'sirchan gapirishga intiladi, tilga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, o'z gapi va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'ladi, o'rinli so'zlash va tinglash madaniyati, suhbat va munozara madaniyatiga amal qiladi. Bular umum-me'yor darajasidagi talablardir.

Nutq madaniyatida ham adabiy til me'yori-o'lchovi zarur. "Til me'yori-bu til birliklari va uning qurilishini o'zaro yaxshi tushunish zaruriyati tufayli paydo bo'lgan, undan foydalanuvchi xalq tomonidan yaratilgan amaldagi qoidalar yig'indisidir" -deb ta'kidlaydi olim B.N.Golovin.

Til unsurlarining xalq o`rtasida ko`pchilikka ma`qul bo`lgan variantini tanlash-adabiy til me`yori hisoblanadi.

O`zbek adabiy tilining me`yorlari:

1. **Fonetik me`yorlar.**

Bunda hozirgi o`zbek adabiy tilidagi unli va undosh tovushlarning qo`llanilishi me`yor hisoblanadi.

2. **Leksik-semantik me`yor (so`z qo`llash)lar.**

So`z variantlaridan hamma uchun tushunarli bo`lgan ko`rinishini tanlab olish hozirgi o`zbek tilining lug`aviy me`yori hisoblanadi.

Imlo, talaffuz, tarjima lug`atlarida lug`aviy me`yor o`z aksini topadi.

So`zning ma`nosini bilmay ishlatish, shevaga xos so`zlarni qo`llash, paronimlarning ma`nosini tushunmasdan ishlatish rus tilidan to`g`ridan-to`g`ri kalka-tarjima qilish me`yor hisoblanmaydi.

Masalan: *bo`lsa* o`rnida *bo`sa* so`zini ishlatish, *yorug`* o`rnida *yoruq* so`zidan foydalanish. Rus tilidan tarjima qilish asosida: Bazm kechasining aybdorlari.

3. **Talaffuz me`yorlari (orfoepik).**

Til birliklarining og`zaki nutq jarayonida adabiy til me`yorlariga muvofiq kelishi. Ruscha so`zlarni yozma shakliga taqlid qilib aytish-(Moskva to`g`ri aytilishi Maskva) so`zlarni o`zbekcha aksent bilan talaffuz etish (Angiliya) shevaga xos talaffuz (yo`l-jo`l) talaffuz me`yorlarini egallashda orfoepik lug`atlarning ahamiyati katta.

4. **Aksentologik (urg`uning to`g`riligi) me`yorlar.**

Bunda so`z va gaplarda urg`uni to`g`ri qo`llash me`yori tushuniladi. Urg`uni to`g`ri ishlatmaslik so`z ma`nosiga ta`sir qiladi: olma-meva, olma-buyruq fe`li.

5. **Grammatik me`yor:**

Turlovchi va tuslovchi shakllarning eng maqbul variantlari hozirgi tilimizda tanlab olingan va ular nutqda barqaror shaklda ishlatiladi. Ammo kelishik qo`shimchalarini noto`g`ri qo`llash uchraydi. Ba`zan –ning o`rnida –ni, –lar o`rnida –la ishlatiladi. *Direktorni xonasida ko`rdim.* (direktorni o`z xonasida ko`rmoq). *Direktorning xonasida ko`rdim.* (Boshqa birovni direktor xonasida ko`rmoq).

6. **So`z yasaliş me`yorlari:**

So`z yasovchi qo`shimchalarning fonetik tuzilishi jihatidan bir qolipda ishlatilishi so`z yasaliş me`yori hisoblanadi. Ba`zan nuqtda sifat yasovchi –li va ot yasovchi –lik qo`shimchalari farqlanmay ishlatiladi. *Paxtali chopon* o`rnida *paxtalik chopon*.

7. **Imloviy me`yorlar (orfografik).**

Hozirgi o`zbek adabiy tilining me`yorlari 1956-yil “O`zbek orfografiyasining asosiy qoidalari” ga tayanadi. 72 paragrafdan iborat. 1995-yil yangi lotin alifbosiga o`tish haqida qaror qabul qilindi.

Lotin alifbosiga asoslangan yozuvda ham yangi orfografik qoidalar yaratildi. Bo`g`in ko`chirish qoidalariga o`zgartirishlar kiritildi. Demak, imloviy me`yor so`zlarning to`g`ri, xatosiz yozilishiga asoslanadi.

8. Grafik (yozuv) me`yorlari:

Hozirgi yozuvimiz lotin alifbosiga asoslangan bo`lib, 29 ta harf va 3 ta harf birikmasidan iborat.

9. Punktuatsion me`yorlar:

Bu me`yor 10 ta tinish belgisi asosida ish yuritadi (nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, tire, undov belgisi, so`roq belgisi, ko`p nuqta, qo`shtirnoq, qavs)

10. Uslubiy me`yor:

Nutq sharoitiga qarab til birliklarining eng ma`qulini qo`llash adabiy tilning uslubiy me`yori hisoblanadi. Sinonimlardan noto`g`ri foydalanish, so`z takror ayrim eskirgan so`zlarni qo`llash nutqni uslubiy jihatdan buzadi.

O`zbek tilida so`zlashuvchi kishilar va ijodkorlar uchun o`zbek adabiy tili me`yorlariga rioya qilish majburiy sanaladi.

Nutq odobi-umumiy axloqni bezovchi mezon hisoblanadi. O`rta Osiyoda axloqiy tarbiya o`z an`analariga ega. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimgi turkiy yodnomalar buyuk allomalarning asarlari, yozma yodgorliklar orqali bizgacha yetib kelgan.

O`rta asrlarda axloq fan sifatida yuzaga keldi. Farobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Sabzavoriy, G`iyosiddin Mansur kabi olimlarning asarlarida axloq fanining mavzusi vazifalari, maqsadi nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berildi. XIII asrda yashagan Ibn Arabiyning "Tahzibul axloq" ("Xulqiy tarbiya haqida"), "Kitobul axloq" ("Axloq kitobi"), Abu Bakr Qalandarning "Qalandarnoma" asarlari, XV asrda yashagan Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", XVI asrda yashagan Poshshoxo`ja Abduvahobxo`janing "Gulzor", "Miftoh ul- adl" ("Adolat kalidi"), XVII asrda yashagan Abdurahmon ibn Abdukarimning "Muftoh u-l axloq", XVIII asrda yashagan Hakim Qoniyning "Parishon" va "Guliston", XIX asrda yashab ijod qilgan Abu Tohir Xo`janing "Axloqi Muzaffariy", va "Axloqi Muhammadiy", Abdurahmon Sharafning "Ilmi axloq", Salohiddinning "Mahosini axloq" ("Axloq fazilatlar"), XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashagan Abdurahmon Sayyohning "Me`yori axloq" kitoblarida sharqona meros bo`lgan axloq masalalari ilmiy mushohada etib beriladi. O`rta Osiyo xalqlari boy axloqiy merosga ega hisoblanadi. Demak, axloqni belgilovchi nutq odobiga rioya qilish bizning xalqimizga ajdodlardan qolgan meros. Ota-bobolarimiz qadimgi davrlardan boshlab axloqiy tarbiyaga katta e`tibor berganlar. Odobli so`zlash uchun ham avvalo o`zbek adabiy tili me`yorlarini mukammal o`rganmoq zarur.

O`qituvchi nutqi adabiy til me`yorlariga to`la mos kelishi uchun bu adabiy me`yorlarni u mukammal o`rganmog`i hayotiy zaruratdir. Agar o`qituvchi nutqi adabiy til me`yorlariga to`la mos kelsa bu o`quvchilarning

yutug'idir. Chunki bola ustozidan ta'lim oladi, hattoki unga taqlid ham qiladi. To'g'ri, boshqa soha vakillaridan ham adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda so'zlash talab etiladi. Ammo o'qituvchi kelajak avlod tarbiyachisi sifatida bola dunyoqarashini shakllantiradi. Shuning uchun ham o'qituvchi har qanday vaziyatda va har qanday sharoitda o'z nutqiga e'tiborli bo'lmog'i talab etiladi.

Mavzu: *Nutqning uslubiy turlari.*

Reja

1. Til boyliklarini ishlatishdagi xilma-xillik.
2. Nutqning vazifaviy uslublari.
3. Nutq uslublarning o'ziga xos xususiyatlari.
4. O'qituvchi nutqining uslubi.

Adabiyotlar:

1. Qilichev E., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
2. Qo'ng'irov R, Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1992.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
4. Begmatov E., Boboyev A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. T., 1983.
5. Tojiyev Yo, Hasanova N, Tojimatov H, Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1994.

Til boyliklaridan har kim o'zicha foydalanib so'zlaydi. Bir turdagi so'zlar va tilga tegishli boshqa belgilar bir nutqda ko'proq ishlatilgani holda boshqa nutqda uchramaydi. Boshqa bir nutq o'zining so'z boyligi va gaplarning qurilishi, ohangi bilan uchinchisi bir nutqdan ajralib turadi. Til boyliklarini tanlab ishlatishga qarab nutq ko'rinishlari bir necha turga ajraladi. Ana shu xilma - xillik nutq uslublari deb ataladi. Nutq uslublari aloqaning maqsadiga muvofiq amalga oshuvi yo'lida so'zlovchining til boyliklaridan tanlab foydalanishi tufayli nutqning tarixan shakllangan ko'rinishidir. Quyidagi misollar orqali nutq uslublarni tasavvur qilsa bo'ladi:"

2-modda . Har bir inson , har qanday tafovutlaridan qat'iy nazar , ya'ni irqi, terisining rangi , jinsi, tili, dini, siyosiy yoki o'zga e'tiqodlari, moddiy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa mavqeiga qaramasdan, ushbu Dekloratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yohud xududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro statusiga ega ekanligi asosida bu xudud mustaqil, vasiylikdagi, o'z-o'zini idora qilmaydigan yoxud suvereniteti

qaysidir jihatlaridan cheklab qo'yilganidan qat'iy nazar ,biron bir darajada odam ajratilishiga yo'l qo'ymasligi kerak."

Azizim, axir sizga ne gunoh qildimki, menga buncha sitamlar qilasiz? Kecha aytgan joyingizga borib, qosh qorayguncha kutdim, kelmadingiz. Kutgandan yomoni bo'lmas ekan."

"Sistem tilshunosligida gapning sintaktik struktura unsurlari gap bo'laklari yoki sintatik pozitsiya nuqtai nazaridan, propozitiv struktura uslublari esa ob'ektiv reallik strukturasiga izomorflik nuqtai nazaridan , kommunikativ (aktual) struktura tema (ma'lum) va rematik (yangi) nuqtai nazardan o'rganiladi."Bu nutq parchalarining har bir grammatik qurilishi, leksikasi, ohangi jihatidan bir-biridan keskin ajralib turadi. Birida rasmiy nutqqa xos leksika asosiy o'rinni egallaydi.

Uslubshunoslikka bag'ishlangan asarlarda nutqning quyidagi uslublari ko'rsatiladi.:

1. So'zlashuv uslubi.
2. Rasmiy uslub.
3. Ilmiy uslub.
4. Publisistik uslub.
5. Badiiy uslub.

Har bir uslub o'ziga xos sistema bo'lib, boshqa uslublardan ko'pgina belgilari bilan ajralib turadi.

So'zlashuv uslubi.Bu uslub o'z leksikasi, fonetikasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so'zlashuv tilini o'zida aks ettiradi. So'zlashuv uslubi uchun oddiylik, soddalik, betakkaluflik, xayajonlilik xosdir. Xalq orasida keng tarqalgan "qosh qorayguncha," "uchchiga chiqqan " kabi frazeologizmlardan: ona , osh, tuz, yer, bola, kun, jo'ra, omon, og'ayni, jonginam, oqshom kabi so'zlardan: - uvdi (boruvdi), -iydi (boriydi), -chi (moshinachi,) - qira(sirqiramoq, oqarinqiramoq) kabi yasovchilardan, gapning dialogik, to'liqsiz, bir tarkibli, so'z-gap kabi shakllaridan foydalanish so'zlashuv uslubida bir qadar ko'proq uchraydi.

Rasmiy uslub. Bu uslub rasmiy hujjatlar til xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. E'lonlar, qarorlar, sud va davlat idoralari hujjatlari shu uslubda yoziladi. Rasmiy uslub hayotda juda keng qo'llaniladi. Shuning uchun uning lug'ati rang - barang so'zlardan tashkil topadi. Masalan:

E'lon!

Bugun kech soat sakkizda mahalla xotin-qizlari kengashining navbatdan tashqari yig'ilishi bo'ladi. Kun tartibi:Usmon Abrorovning oiladagi xulqi va mahalla erkaklarining galdagi vazifalari.Barcha kengash a'zolarini qatnashishlarini so'raymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilinishi to'g'risida. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi musulmonlarining istak va xohishlarini inobatga olib hamda fuqarolar o'rtasida

mehr-oqibatni barqarorlashtirish maqsadida diniy bayram-Ro'za hayit ("Iyd al-fitr")ni 4 -aprel dam olish kuni deb tayinlansin.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI I.A.KARIMOV.**

Toshkent shahri,
2002 yil 27 mart.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslub fanning turli sohalariga aloqador so'z va atamalarni ko'proq tasarruf qilish, bayonning ko'proq mantiqiy dalillarga suyanish bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Ilmiy uslubda tabiat va jamiyat hodisalari aniq, qandaydir qoidalar, formulalar asosida ifodalanadi. Ilmiy bayonda fikr mantiqiy va ashyoviy dalillar bilan mustahkamlanib boradi. Ilmiy uslubda to'liqsiz gaplar, bir tarkibli gaplar so'z-gaplar deyarli uchramaydi. So'zlashuvning qisqa dialog turi ham ilmiy uslubda yozilgan asarlar uchun begonadir. Ilmiy uslubning ilmiy va ilmiy - ommabop ko'rinishlari bor. Ilmiy ommabop bayon o'zining leksik tarkibi va sintaksisi bilan xalq ommasiga mo'ljallangan bo'ladi. Bunday nutqda fanning maxsus sohalariga aloqador atamalar kamroq ishlatiladi, tilga olinganlariga izohlar berib boriladi. "Hozirgi davr fonetikasida ikki asosiy usul mavjud: subektiv va obektiv usuli. Subektiv usul talaffuzni bevosita (ko'rish va eshitish) kuzatishdan iborat. Bu eng qadimiy va doimo qo'llash mumkin bo'lgan usuldir... Texnik apparatura yordamida ya'ni obektiv usullar yordamida aniqlanuvchi artikulyatsion-akustik xususiyatlar eksperenmental-fonetik tekshirish yoki nutqni instrumental tasnif etish deb yuritiladi."

Jismning harakati to'liq takrorlanadigan eng kichik vaqt oralig'i tebranishlar davri deyiladi. Davrni siklik chastota orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$T=2"$

Publisistik uslub. Davrning ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalarini jo'shqinlik bilan aks ettirish publisistik uslubga xosdir. Tarixiy yoki boshqa har xil dalillarni nutqqa kiritib, mantiqiy umumlashmalar chiqarish yoki bu ishni tinglovchiga havola etish, fosh etilgan shaxs yoki hodisalar ustidan kinoya, kesatq, piching hamda qochrimlar qilish, ritorik, so'roq gaplardan foydalanish publisistik nutqni jonli, ta'sirchan, hayajonli qiladi. Shuni aytish kerakki, har bir publisistik nutq albatta shulardangina iborat bo'ladi, degan gap emas. Publisistik nutqda muallif voqelikka nisbatan faol munosabatda bo'ladi. Uning hayotga, voqelikka bo'lgan bunday munosabati dalillarni tanlashda, ularni tahlil qilishda, tilning emotsional - ekspressiv vositalarini tasarruf etishda ko'rinadi. Publisistik nutqda obrazlilikka katta e'tibor beriladi. Tilning tasviriyy vositalaridan keng foydalaniladi. Til vositalarini tanlash mantiqiylik va emotsionallik talabiga qarab amalga oshadi. Publisistik nutqqa misol sifatida A. Qodiriyning 1920-1936 yillarda yozilgan "Hoy, yer yutgur..." Mushtum" "Oqsoqlangan emish" kabi, Hamid Olimjonning Vatan urushi yillarida bosilgan

"Men o'zbek xalqi nomidan so'zlayman!", "Qaytish", "Do'stligimiz haqida" kabi asarlarini ko'rsatish mumkin.

Badiiy uslub. Badiiy uslub nutqning boshqa uslublaridan dastlab o'zining obrazlilik va estetik ta'sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikasining hamma qatlamlari ishtirok etadi. Chunki, yuqorida zikr etilgan uslublar ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasini ifodalasa, badiiy uslub inson faoliyatining barcha qirralarini o'zida aks ettiradi, hammaga taalluqli bo'ladi. Unda turli kasb-kor, fan-texnika, xalqning maishiy hayotiga tegishli rang-barang so'zlar qo'llaniladi. Bu uslubda til vositalari obrazlar va manzaralar yaratadi, kishilarga estetik zavq berish uchun xizmat qiladi. Badiiy uslub uchun shaxsiy obrazli so'z ishlatish xarakterlidir. Har bir muallif o'ziga xos so'z ishlatish usullaridan foydalanadi. Bu bilan o'ziga xoslikka asarning o'qimishli bo'lishini ta'minlashga intiladi. Badiiy nutq hamma narsaning yangi, oxori to'kilmagan, boshqalar ishlatmagan bo'lishini xohlaydi. Shu tufayli shoir va adiblar hammaga ma'lum til vositalaridan o'zigagina xos usulda foydalanishga harakat qiladilar. Shaxsiy obrazlilik publisistik uslubga ham xosdir. Obrazlilik so'zlashuv uslubida ham bo'ladi. Lekin ular ko'pchilik tomonidan ko'p martaba ishlatilgan, "qotib qolgan", "qoliplashgan" holda amal qilgan badiiy uslubda obrazlilik yangi, shirador bo'ladi. Chunonchi, Uyg'unning so'z qo'llashdagi o'ziga xosligi badiiy vositalarning yangiligi, "oxori to'kilmaganligi" quyidagi parchada ko'rinib turadi.

Kumush choyshab yopib dalalar,
Qor quynida uxlab yotadi.
Ufqlarga qizil hol tashlab,
Zar soch yozib quyosh botadi.

Ko'rinib turganidek nutq uslublari turli shakllarda bo'lib, so'zlovchining sharoitdan kelib chiqqan holda so'zlashini talab etadi. O'qituvchi o'z ish faoliyati davomida nutq uslublaridan o'rinli va unumli foydalana bilmog'i zarur. O'qituvchi barcha nutq uslublarini chuqur egallamog'i, dars jarayonida ulardan samarali qo'llay bilishi lozim.

Mavzu: Nutqning asosiy xususiyatlari
(to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyiligi, o'rinlilik, boyligi)

Reja:

1. O'qituvchi nutqining to'g'riligi.
2. Aniq nutq-maqсадga erishtiruvchi vosita.
3. Nutqning tafakkur bilan aloqasi.
4. O'qituvchi nutqining o'rinlilik.

5. Til vositalarining nutqdagi o`rni.

Adabiyotlar:

1. Qilichev E, Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
2. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
3. Mahmudov N. Ma`rifat manzillari. T., 1999.
4. Qo`ng`irov R, Begmatov E, Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1992.

Insoniy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkazish uchun so`zlarni tanlash madaniy nutq talabi yoki madaniy nutq fazilati hisoblanadi. Ma`lumki, nutq so`zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko`rinishi. Aytilmoqchi bo`lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxonga to`liq yetib borishi, ma`lum bir ta`sir ko`rsatishiga yaxshi nutq deb aytishimiz mumkin.

Nutq har tomonlama mukammal, to`liq bo`lishi uchun uning oldiga ma`lum talablar qo`yiladi va bu talablar nutqning asosiy xususiyatlari-kommunikativ sifatleri yoki madaniy nutq mezonlari deb ataladi.

Nutqning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: nutqning to`g`riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, o`rinliliigi, boyligi, sofligi va ta`sirchanliigi. (Nutqning sofligi (tozaligi) va ta`sirchanliigi (ifodaliliigi) kelgusi darsda muhokama etiladi).

I. O`qituvchi nutqiy madaniyatining muhim belgilaridan biri-o`z fikrini to`g`ri, mazmunli bayon qila olishidir. Adabiy tilning fonetik, orfoepik, leksik-semantik va grammatik me`yorlari talablariga to`la mos keladigan nutq to`g`ri nutqdir.

Nutqning to`g`riligini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Nutqda adabiy til me`yorlariga to`la rioya qilish.
2. So`z va iboralarni to`g`ri talaffuz qilish.
3. So`z urg`usi va mantiqiy urg`uga e`tibor berish.
4. Intonatsiya (ohang) va pauza (to`xtam)ga diqqat qilish.
5. So`zlarning aytilishidagi tafovutlar (samimiy, kinoyali, norozi, o`ksinish, masxaralash, quvonch) anglay olish.
6. Sinonim va terminlarni to`g`ri qo`llay olish.
7. Sintaktik me`yor-gapni mantiqiy bog`lash va ega, kesim mosligiga e`tibor qaratish.
8. Frazologizm (ibora) lardan oqilona foydalanish.
9. Grammatik me`yor gap tuzish qoidalariga rioya qilish, o`zak va qo`shimchalarni qo`shishda xatoga yo`l qo`ymaslik, kelishik qo`shimchalarini o`z o`rnida qo`llash.

Xalq tilining ishlangan, sayqallangan oliy shakli adabiy til bo`lib, adabiy mezonlari kishilar nutqiy axloqining sozlovchisi vazifasini bajaradi. Shunday

ekan, har bir savodli o`qituvchi adabiy til mezonlaridan oqilona foydalanishga harakat qilmog'i shart.

Demak, yuqorida ko`rsatilgan qoidalarga to`la amal qilinsa o`qituvchi nutqining to`g`riligiga e`tibor qaratilgan bo`ladi.

II. Aniq nutq ham so`zlovchini maqsadga erishtiruvchi muhim vosita sanaladi.

Aniq nutq tuza olish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

1. So`z ma`nosiga e`tibor berish.
2. Omonim, ko`p ma`noli so`zlarni qo'llay bilish.
3. Mantiqiy jihatdan voqelikka zid tushadigan so`zlarni aytmaslik.
4. So`zlar tartibiga rioya qilish (so`zlarni o`z o`rnida qo'llash)
5. So`zni to`g`ri tanlash.
6. Ixcham aniq, lo`nda jumlar tuzish (sarlavha, rejalar).

Fikriy noaniqliklar quyidagi hollarda uchraydi:

1. So`z ma`nosiga yetarli e`tibor bermaslik natijasida.
2. Paronimlar ma`nosini bilmaslik natijasida.
3. Mantiqiy jihatdan voqelikka zid bo`lgan tushuncha ifodalovchi so`zlarni yonma-yon ishlatish natijasida.

Sharq olimlari ham aniqlikni nutqning muhim fazilatlaridan biri deb ta`kidlaganlar. Aristotel "Agar nutq noaniq bo`lsa, u maqsadga yetishmaydi" deb aytgan. O`qituvchi nutqining aniqligi muhim fazilat sanaladi. Aniqlik ikki xil bo`ladi. Narsaning aniqligi mohir notiq o`zi fikr yuritmoqchi bo`lgan nutq predmetini yaxshi bilsa, unga mos so`zlar tanlansa tanlangan so`zlarni ma`nosiga mos vazifalar yuklasa ham nutq aniq tuzilgan hisoblanadi.

III. Nutqning mantiqiyligi to`g`rilik va aniqlik bilan chambarchas bog`liq. Nutqning mantiqiyligini quyidagi qoidalar ta`minlab beradi.

1. Eng avvalo so`zlar ma`nosini chuqur bilish.
2. So`z tartibiga rioya qilish.
3. Bir-biriga mos keladigan so`zlarni biriktirish.
4. Matndagi fikrlarning bir-biriga qarama-qarshi bo`lmasligi.
5. Bir xil ma`no ifodalovchi so`zlarni pleonazmlarni (turli, ko`pincha) nutqqa ortiqcha kiritmaslik.

Mantiqiy nutq tafakkur bilan bog`liq. Shuning uchun ham mantiqiy nutqda eng avvalo so`z mazmuniga katta e`tibor beriladi.

IV. Madaniy nutqning muhim fazilatlaridan biri-nutqning o`rinliligidir. O`rinlilik o`z ichiga quyidagi me`yorlarni oladi.

1. Nutqning sharoit uchun mosligi.
2. So`z ma`nosini anglash.
3. Matn uchun so`z o`rinliligi.
4. Nutqning vaziyatga mosligi.

Shuningdek, uslub o`rinliligi, til birliklarining parcha uchun o`rinliligi, vaziyat o`rinlilikni ham o`z ichiga qamrab oladi.

Madaniy nutq mezonlaridan yana biri nutqning boyligidir. O`qituvchi nutqining boyligi nutqda ishlatiladigan til vositalarining ko`pligi bilan belgilanadi. Ba`zi kishilarning og`zaki nutqida so`zlar ko`p martalab takrorlanadi, fikrni tinglovchiga aniq yetkazib berish uchun zarur bo`lgan til vositalari ishlatilmaydi. Bunday nutq tinglovchiga yaxshi ta`sir etmaydi. Shuning uchun har bir o`qituvchi avvalo badiiy asar mutolaasi bilan shug`ullanishi kerak. Tildagi sinonimlardan va til vositalaridan o`rinli va unumli foydalanmog`i maqsadga muvofiq. Shundagina o`z fikrini aniq yetkazib bera oladi.

Hozirgi zamon oliy ma`lumotli kishisi 10-12 ming til birligidan foydalanishi haqida olim T.Qudratov ma`lumot beradi.

Jahon adabiyotida ham umummadaniyat xazinasiga katta hissa qo`shgan ko`plab ijodkorlarning so`z boyligi uslubiy jihatdan o`rganib chiqilgan. A.S.Pushkin o`z asarlarida 21,197 so`zdan Shekspir 20,000 so`zdan, Servantes 18000 so`zdan A.To`qay 14000 so`zdan Abay 6000 so`zdan foydalangan. Navoiy esa olim B.Bafojevning ma`lumotiga ko`ra o`z asarlarida 1378667 so`z ishlatgan. “G`aroyib us-sig`ar” da 7669 so`z, “Farhod va Shirin”da 5421 so`z turli ma`nolarda qo`llanilgan. Ulkan o`zbek adiblari Oybek 25 ming so`zdan, A.Qahhor esa 22 ming so`zdan foydalangan.

O`zbek tilining boyligini belgilashda iboralarining ham o`rni katta. Chunki o`zbek tili frazeologizmlarga boy til bo`lib, bu iboralar o`zbek tilining boyligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yana ba`zi manbalarda Navoiy 26 ming so`zdan, Pushkin 24 ming so`zdan foydalanganligi haqda ma`lumotlar berilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish muhimki, nutqning madaniy mezonlari bo`lgan-to`g`rilik, aniqlik, mantiqiylik, o`rinlilik, nutqining boyligi kabi fazilatlarga rioya qilib, adabiy tilda so`zlashga harakat qilgan, nutqning mantiqiyliги ustida tinimsiz izlanishlar olib borgan haqiqiy o`qituvchigina o`quvchi qalbiga yo`l topa oladi, chiroyli va tushunarli so`zlash qobiliyatiga ega ekanligi tufayli ham o`z maqsadini-o`z fikrini tinglovchiga aniq va ravshan yetkaza oladi. Bunday madaniy mezonlarga ega bo`lgan o`qituvchi nutqining maftunkorligi bilan bola qalbiga ta`sir etadi va o`quvchini ham adabiy til mezonlariga rioya qilgan holda so`zlashga o`rgata oladi.

Madaniy nutq mezonlar o`zaro shunday chambarchas bog`liqki, birisiz ikkinchisini tasavvur etib bo`lmaydi. Shuning uchun ham nutqda ular o`zaro mushtarak holda o`rganiladi.

Mavzu: Madaniy nutq mezonlari
(Nutqning sofligi va ifodaliligi)

Reja:

1. O`qituvchi nutqining sofligi.
2. Tilning sofligini buzuvchi nome`yoriy faktorlar.
3. Ifodalilik-nutqning muhim fazilati.
4. Ifodalilikni ta`minlovchi vositalar.

Adabiyotlar:

1. Nusratullo Atoulllo o`g`li Jumaxo`ja. Istiqlol va ona tilimiz. T., 1998.
2. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
4. Qo`ng`irov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1992.

Nutqning maqsadga muvofiqligi madaniy nutqdan talab qilinuvchi asosiy mezonlar bilan belgilanadi. Madaniy nutqning lingvistik va nolingvistik mezonlariga quyidagilar kiradi: nutqning to`g`riligi, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyliigi va tozaligi (sofligi), nutqning ta`sirchanligi (ifodaliligi), nutqning o`rinliliigi. Madaniy nutq yuzaga kelishi uchun bu o`lchovlardan o`z me`yorida foydalanish zarur.

Nutqning sofligi ham madaniy nutqning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Nutqning sofligi ba`zi ilmiy adabiyotlarda nutqning tozaligi tarzida tilga olinadi. Nutqning sofligi, tozaligi deganda adabiy til me`yorlariga mos holda fikr ifodalash tushuniladi. Bu masala uzoq davrlardan beri notiqalar, olimlar, yirik so`z san`atkorlarini qiziqtirib kelmoqda. O`qituvchi jamiyatning faol kishisi sifatida o`z nutqiga katta e`tibor bilan qaratishi lozim. “Adabiy til uchun begona unsurlari bo`lmagan, axloq normalari tan olmaydigan so`zlardan holi bo`lgan nutq **sof nutq** deb yuritiladi”¹.

Nutq shaxsga xos hodisa bo`lganligi sababli, unda ijtimoiy axloq me`yorlarini buzuvchi til birliklari ham ishlatilishi mumkin. Madaniy nutqning sofligi, tozaligiga quyidagi unsurlar halaqit beradi:

1. Fonetik-orfoepik jihatdan so`z va qo`shimchalarning noto`g`ri talaffuz etilishi, urg`uni o`rinsiz qo`llash.
2. Leksik-grammatik tomondan shevaga xos so`z va shakllarning, ibora va so`z birikmalarining ishlatilishi.
3. O`rinsiz qo`llangan chet so`z va so`z birikmalari (varvarizmlar).
4. Jargonlar.
5. Vulgarizmlar.
6. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan bekorchi-parazit so`zlar.

¹ Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993, 50-bet.

7. Kanselyarizmlar.

O'qituvchining nutqi yuqorida sanab o'tilgan unsurlardan holi bo'lgandagina madaniy nutq hisoblanadi.

Nutqning tozaligi, tilning sofligini buzuvchi nome'yoriy unsurlardan biri-fonetik-orfoepik jihatdan so'z va qo'shimchalarni noto'g'ri talaffuz etishdir. Buxoroga bo'ldim, aslida Buxoroda bo'ldim kabi.

2. Tilning sofligiga putur yetkazuvchi faktorlardan yana biri so'z va qo'shimchalarni mahalliy lashtirib, sheva xos holda talaffuz etishdir. Masalan: Parhod (Farhod), kelopti (kelyapti), kelli (keldi), ko'rdiz-ku? (ko'rdingizku-ku?) kabi.

Nutqimizda x va h harflarini, x va q harflarini talaffuz etishda, ishlatishda ham xatoliklar yuzaga keladi: xol (yuzdagi xol) hol (kishining ahvoli), tarix (fan) tariq (o'simlik).

Shevaga xos so'zlar adabiy til me'yori doirasiga kirmasa ham, so'zlashuv va badiiy nutq uslublarida ishlatiladi. Ayniqsa, "badiiy adabiyotda tasviriy vosita-mahalliy kolorit yaratish, qahramonlar nutqini individuallashtirish vazifasini bajardi. Shu bilan bir qatorda adabiy tilning sheva hisobidan boyib borishiga ta'sir ko'rsatadi".¹

Demak, o'qituvchi nutqi mahalliy shevaga xos so'z va iboralardan holi bo'lishi uning nutqi sof, toza ekanligidan dalolat beradi. Urg'uni noto'g'ri ishlatish ham adabiy til me'yorlarining buzilishiga olib keladi. Masalan: keldi-adabiy talaffuzda urg'u i harfiga tushsa, ba'zi (Qiziltepa, Buxoro, Romitan) shevalarda ye harfiga tushurib talaffuz etiladi.

Shevaga xos so'zlarni nutqqa o'rinsiz olib kirish nutqni buzadi. Ammo T.Qudratov fikriga ko'ra, "adabiy tilda varianti bo'lmagan, ifodalanayotgan fikrni ravshanlashtirish uchun zarur so'z va grammatik vositalarni, ularga izoh bergan holda, nutqqa olib kirish unga sayqal bag'ishlaydi.

Varvarizmlar-o'rinsiz ishlatiladigan boshqa tilga oid so'zlar bo'lib, xalqaro terminlar bundan mustasnodir. Rus tiliga oid so'zlar oktabr to'ntarishidan so'ng o'zbek tiliga ko'plab kirib keldi, bugungi kunda esa ingliz tiliga xos so'zlar nutqimizga kirib kelmoqda: Privet-xello kabi Varvarizm latincha-kelgindi so'zidan olingan bo'lib, uning turlariga quydagilar kiradi: Gallinizm-fransuz tilidan kirgan so'zlar, germanizm-nemis, latinizm-latin, arabizm-arab, turkizm-turk tilidan kirgan so'zlar kabi.

Yozuvchi asar qahramonlarining tilini individuallashtirish, o'ziga xos xususiyatlarini alohida ta'kidlash maqsadida varvarizmlardan foydalanadi. Masalan o'zbek shoir va yozuvchilaridan Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulomlar arabcha va forsha so'zlardan keng foydalanganlar. Bu hodisa Navoiy asarlariga ham xos (hodisa) bo'lib, shoir asarlari arabcha, forsha, so'zlardan iborat bo'lgan matnlar ko'p uchraydi. Shoir va yozuvchilar qahramonlar

¹ Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002, 24- bet.

timsolini yaratishda varvarizmlardan oqilona foydalanish natijasida xarakterga xos bo'lgan qirralarni mohirona tasvirlab berganlar.

Jargonlar-ayrim kasb egalari, guruhlarning o'z "tili" bo'lib, faqat ularga xos bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan terminlardan foydalaniladi: Masalan: qassoblar, dallollar, o'g'rilar nutqi.

"Jargon yoki argo (fr.jargon-buzilgan til so'zidan)- jargon, abdal tili. Ma'lum guruhga mansub kishilar o'rtasidagi sun'iy til bo'lib, u o'zi xizmat qiluvchi guruh kishilari kasb-koriga oid tushunchalarni anglatuvchi so'z va iboralardan tashkil topadi"¹.

Jargonlar adabiy asarda turli guruhlarga mansub qahramonlar tilining haqqoniy chiqishida, asardagi xarakterni boyitishda muhim vazifani bajardi.

Nutqning sofliğiga putur yetkazuvchi unsurlardan yana biri vulgarizmlardir. Vulgarizm latincha-dag'al, qo'pol ma'nosini anglatadi, adabiy tilda qo'llanilmaydigan qo'pol so'zlar, til me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan noto'g'ri tuzilgan jumlar, kishini so'kishda, haqoratlashda ishlatiladigan so'zlardir. Bunday so'zlardan foydalanish so'zlovchining madaniyatsiz, johil, qo'pol ekanligini ko'rsatadi. Yozuvchi ham, o'qituvchi ham o'z nutqida vulgarizmlardan foydalanmasligi qat'iy qilib belgilab qo'yilgan.

Nutqda ortiqcha takrorlanadigan bekorchi-parazit so'zlar ham adabiy til me'yorlarining buzilishiga olib keladi. Nutqda bu so'zlar o'rinli-o'rinsiz ko'p takrorlanadi: Masalan: xo'sh, xo'p, demak, ya'ni, masalan, olaylik, tak, haligi, anavi kabi.

Kanselyarizmlar-badiiy adabiyotda obrazli individuallashtirishda uslub vositalari sifatida ish qog'ozlari va hujjatlar uslubiga xos so'z va iboralar. Albatta, ma'lum bir shaklda saqlanadigan so'z birikmalari, gaplar o'z o'rnida juda zarur, ammo bu "qat'iy shakllar" shablonlar so'zlashuv nutqiga, badiiy adabiyotga, publitsistikaga o'tsa madaniy nutqni buzishi mumkin. O'rinsiz kanselyarizmlar kengashlar, majlislar, gazeta, radio, televideniya da so'zlangan nutqlarda ko'plab uchraydi.

O'qituvchi nutqida sofliğka erishishi uchun kanselyarizmlardan foydalanishga ham jiddiy e'tibor bermog'i lozim.

O'qituvchi nutqining muhim fazilatlaridan biri-ifodalilik, ta'sirchanlikdir. Ifodali, ta'sirchan nutq tinglovchida qiziqish uyg'otadi, uning ongiga tez yetib boradi, uning e'tibori va qiziqishini qozonadi. Nutqning aloqaviy sifatlari-aniqligi, to'g'riligi, mantiqiyliğı, sofliğ (tozaligi) –nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun og'zaki nutqda so'zdagi unli tovushlarni cho'zish orqali shodlanish, taajjub, iztirob, o'kinish, g'azablanish kabi hissiy bo'yoq ifodalanadi, urg'u va so'zlar bo'ginlarga bo'lib talaffuz qilinadi.

¹ Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T., 1983, 120-bet.

Notiqlar, soʻz sanʼatlari oʻz nutqlarini taʼsirchanligini taʼminlash maqsadida koʻtarinki tantanali uslubda soʻzlaydilar. Muhim qarorlar, axborotlar, farmonlar oʻqilganda ham bu uslubdan foydalaniladi. Bunda tekis ritm, urgʻularni toʻgʻri qoʻyish, intonatsion koʻtarinkilik, oʻrni bilan pauzaga katta eʼtibor beriladi.

Nutq taʼsirchanligini oshirishda turli maʼno noziklariga ega boʻlgan soʻz, iboralardan foydalaniladi. Chunki bu til birliklari joʻshqin his-toʻygʻuni, ichki kechinmalarni ifodalaydi.

Soʻzlar tarkibidagi his-hayajon, voqealarga munosabat, erkalash, sevish, kichraytirish, shakllarini qoʻshish, soʻzlarni oʻz va koʻchma maʼnosida ishlatish notiqqa kinoyali nutq, soʻz oʻyinlari, oʻxshatishlar hosil qilishda qoʻl keladi. Sinonimlarni juft yoki yonma-yon qoʻllash (ohu -zor, faryodu- figon), sinonimik qatordan keraklisini tanlab olish ham taʼsirchanlikni oshiradi.

“Yumshoq sinonim” lar deb ataluvchi evfemizmlar (homiladorlik bilan bogʻliq ikkiqat, oy-kuni yaqin), maqol va aforizmlar, inversiya (jozibali nutqni yuzaga keltiruvchi imkoniyatlar: qoʻlingni yelkamdan tort-iltimos, soʻrash, tort qoʻlingni yelkamdan-buyruq, qatʼiy talab kabi) meʼyorida foydalanish ham nutq taʼsirchanligini oshiradi.

Taʼsirchanlikni taʼminlovchi omillardan sanalgan ifodalilik ham nutq vaziyati bilan bogʻliq. Oʻqituvchining darsdagi nutqi bilan notiqning maʼruzani tushuntirishdagi ifodaliligi, EHM yuzasidan qilingan maʼruza bilan xalqaro kengashda qilingan maʼruza ifodaliligi turlichadir.

“Nutqning ifodaliligi talaffuz urgʻu, leksika, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, uslub bilan mustahkam aloqadordir”¹.

Tilshunos B.N.Golovin nutqda ifodalilikka erishishning yetti shartini koʻrsatadi:

1. Nutq muallifi tafakkoʻrining erkin, mustaqil boʻlishi, siyqasi chiqqan gaplarni aytmasligi.
2. Nutq muallifi nima haqida soʻzlayotgani, kimlarga soʻzlayotganini bilishi.
3. Tilni, uning ifoda vositalarini, imkoniyatlarini yaxshi bilishi.
4. Til uslublariga xos xususiyatlarni, xossalarni bilishi.
5. Nutqiy malaka ustida muntazam va ongli mashq qilishi.
6. Soʻzlovchining ifodaligi soʻzlashga boʻlgan ongli ishonchi, ruhan tayyorgarligi.
7. Tilda nutqning ifodaliligini taʼminlovchi vositalarning boʻlishi.

Tilning ifoda vositalariga troplar tasviriy shakllar, tasviriy vositalariga tildagi soʻzlar, lugʻaviy-maʼnaviy vositalarga oʻxshatish (epitet sifatlash), metafora (istiora koʻchirish), metonimiya (qayta nomlash) kabilar kiradi.

Demak, oʻqituvchi nutqning sof-toza, taʼsirchan, ifodali boʻlishi uchun-madaniy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlardan foydalanmasligi, ifodalilikka erishishning yetti shartini bilishi, tilning tasviriy vositalarini

¹ Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993, 64-bet.

chuqur o`rganish va undan oqilona foydalanish ko`nikmalariga ega bo`lishi, turli ma`no nozikliklariga ega bo`lgan so`z va iboralarni qo`llay olish malakalarini egallashi, sinonimlar va “yumshoq sinonimlar” dan, inversiyadan me`yorida foydalan olishi zarur.

Yuqorida aytilgan fikrlarni inobatga olgan holda so`zlash o`qituvchi nutqining kommunikativ sifatlarini, ta`sirchanligini oshiradi va shak-shubhasizki, o`qituvchi o`z oldiga qo`ygan aniq maqsadni amalga oshiradi.

Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida shunday yozadi: “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma`qul chiqsa, tilning ofatidir”. Tilimiz nutq uchun qurol ekan. “Uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo`lar ekan. Agar til o`q bo`lsa, nutq kamondir. O`qning qudrati kamonning qobiliyatiga ham bog`liq. Kamon qanchalik mustahkam bo`lsa, mo`ljalga bexato uradigan bo`lsa, tilning ya`ni o`qning qudrati shunchalik yaqqalroq namoyon bo`ladi”¹.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, haqiqiy o`qituvchining nutqi til qudratini namoyon qila olishi nihoyatda zarur jarayondir.

Mavzu: O`qituvchi nutqiga qo`yiladigan asosiy talablar

Reja:

1. Til va nutq munosabatlari.
2. O`qituvchi-madaniyatli nutq egasi.
3. O`qituvchi va o`qituvchi munosabati.
4. Nutqning ta`sirchanligiga erishish yo`llari.
5. Istiqlof davri o`qituvchisining nutqiga qo`yiladigan talabalar.

Adabiyotlar:

1. Nusratullo Atoulo o`g`li Juma Xo`ja. Istiqlof va ona tilimiz. T., 1998.
2. Quدراتov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
3. Qilichev E, Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
4. Mahmudov N. “Ma`rifat manzillari”. T., 1999.
5. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati. T., 1994.

Ma`lumki, til inson tafakkuri va aqliy faoliyatining mahsuli hisoblanadi. So`zlash qobiliyatiga ega ekanligi tufayli insoniyat koinot gultojiga aylandi. Qadimiy islomiy manbalarga ko`ra Parvardigorning bir og`iz “bo`l” degan so`zi bilan dunyo yaralgan ekan. Tangrining inoyati va so`zning qudrati ila paydo bo`lgan bu olamda shuning uchun ham so`zning qadr-qimmatini balanddir.

¹ Nusratulla Ato ullo o`g`li Jumaxo`ja. Istiqlof va ona tilimiz. T., 1998,45-bet.

Ammo soʻz qanchalik qadr-qimmatga ega boʻlmasin yakka holatda amaliy ahamiyat kasb eta olmaydi. Soʻzning qudrati nutq jarayonida namoyon boʻladi.

“Soʻzning tarixiy-madaniy xizmati cheksiz albatta. Lekin tilning olijanob imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi”¹ - deb yozadi adabiyotshunos olim Nusratullo Juma Xoʻja.

Darhaqiqat, buyuk alloma Alisher Navoiy ham til shunchalik sharafi bilan nutqning quroli ekanligini uqtiradi. Nutq kamon boʻlsa, soʻz-oʻq. Oʻq hisoblangan soʻz nishonga bexato yetib borishi uchun kamon-nutq mustahkam boʻlishi lozim. Demak, til va nutq ajralmas hodisalar boʻlib, ularni oʻzaro uygʻunlikdagina tasavvur etish mumkin. Mana shu uygʻunlikdan hosil boʻluvchi madaniy nutqni yuzaga chiqaruvchi kuch-shak-shubhasiz insondir.

Avvalo har bir inson kim boʻlishi va qaysi sohaning egasi ekanligidan qatʼiy nazar chiroyli va maʼnoli soʻzlash qobiliyatiga ega boʻlishi lozim. Chunki insonlar nutq orqali munosabatga kirishar ekan, bir-birlarini tushunmogʻi, oʻzaro kelishib olmogʻi uchun nutqi ravon boʻlmogʻi maqsadga muvofiq.

Nutq qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi-degan edi mashhur gʻarb donishmandi B.Emirson. Demak nutq kishilarni ishontirish sanʼatidir. Mashaqqatli kasb egalari boʻlgan oʻqituvchilar ham oʻquvchilar bilan munosabatga kirishar ekan, avvalo bolalarni bilim olishga ishontirishi undashi lozim. Oʻquvchini ishontirish uchun avvalo oʻqituvchi ishonarli gapirishi, nutqi ravon, tushunarli, chiroyli dalillangan, puxta asoslangan boʻlishi lozim. Shuningdek bu soʻzlarga avvalo oʻzi rioya qilmogʻi shart.

Taniqli notiqlar ham oʻz nutqlarini namunali boʻlishi uchun quyidagi asosiy holatlarga eʼtibor berganlar:

1. Oʻzi toʻxtalmoqchi boʻlgan masala yoki mavzuni chuqur oʻrganish, oʻzlashtirib olish, undagi masalalarga oʻz munosabatini aniq belgilab olish.

2. Oʻz dunyoqarashiga ega boʻlish, soʻz bilan ish birligi nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash.

3. Mavzuga masʼuliyat bilan yondashish, uni tinglovchi oldida toʻliq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish.

4. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik koʻrish, maʼruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy uylab olish, masalalarni oʻrtaga tashlash ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning oʻzaro bogʻlanishini taʼminlashi, maʼlum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olish, oʻzi uchun alohida va keng toʻxtalishi zarur boʻlgan oʻrinlarni belgilab olish.

Ochiq chehrali oʻqituvchi bola mehrini tez qozonadi. Bu saxovatli yurak egalari oʻzining keng feʼli, oʻtkir zehni, tiyron nigohi bilan ham oʻquvchi qalbiga yoʻl topadi. Shuningdek, madaniyatli oʻqituvchi oʻquvchi shaxsini hurmat qila oladi, unga shunday muomalada boʻladiki, bola bu muloqotdan oʻzining ahamiyatli, kerakli ekanligi his etadi. Ahamiyatli boʻlish hissini tuygan

¹ Nusratulla Ato ullo oʻgʻli Jumaxoʻja. Istiqlool va ona tilimiz. T., 1998.

bola qalbida o`qituvchi siymosi yanada ulug`lanadi. O`quvchini hurmat qila olgan o`qituvchigina chinakam ustozga aylanadi.

O`qituvchi o`z ustida tinimsiz ishlar ekan, u avvalo nutqining ta`sirchanligiga e`tibor qaratmog`i lozim. Yuqorida tarixda o`tgan buyuk notiqlarning o`z so`zlarini ta`sirchan chiqishlari uchun qanday qoidalarga rioya qilmoqlari haqida gapirib o`tgan edik. Nutqni ta`sirchan etishning yo`llaridan biri vaziyatga mos, mavzuga xos bo`lgan xalq maqollari, ayniqsa ta`sir kuchi yuqori bo`lgan rivoyatlardan, she`rlardan, badiiy asarlardan foydalanishdir. Badiiy asarlarda epigraf qanday vazifani bajarsa, nutqda maqollar, aforizmlar, rivoyatlardan foydalanish ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan talabaga so`z qudrati haqida ma`ruza o`qir ekanmiz, Navoiyning quyidagi she`riy misralarini misol qilib keltirish, nutqning yanada ta`sirchanligini oshiradi.

Qalam guftoni: “Man shohi jahonam,
Qalamkashro bamaqsad merosanam”.

Qalam dedi: “Men-shohman va egam-qalamkashni albatta maqsadiga yetkazaman”.

Yoki,

Olibmen taxti farmonimga oson
Cherik tortmay Xitodin to Xuroson.

Ya`nikim, cherik (lashkar) tortmasdan Xitoydan Xurosongacha
bo`lgan o`lkani o`z tasarrufimga oldim, zabt etdim.

Shuningdek, rivoyatlardan foydalansak. Shu mavzuni davom ettirar ekanmiz, so`z qudrati haqida quyidagi rivoyat mavzuga mos tushadi.

Husayni Boyqaro uzoqqa ishkorga ketgan chog`ida sevimli malikasi og`ir betob bo`lib bu dunyodan ko`z yumibdi. Bu qayg`uli xabarni shohi yetkazgan kishiga shubhasiz o`limga mahkum etiladi. Saroy a`yonlari Navoiydan yordam berishni so`rashibdi. Shunda Navoiy mazkur satrlarni bitibdi:

Sarvigulning soyasinda so`ldi gul, netmoq kerak?

Maktubni choparlar shohga yetkazishibdi. Bu satrlarni o`qigan
Husayn Boyqaro shunday javob yozibdi:

Sarvidin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak!

Saroy ahli chopar keltirgan xabardan xursand bo`lib, so`zning qudratiga qoyil qolishgan va dafn marosimiga kirishishgan ekan.

Nutq ta`sirchanligini oshirishda ovozning o`rni ham katta. Tiniq, jarangdor, shirali ovoz tinglovchini o`ziga maftun etadi. Notiq pauza, urg`uga e`tibor bersa, nutq yanada samaraliroq natijaga erishadi. O`xshatish, tasviriy vositalar metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag`a, epitet, takror va adabiy

ko`chimlardan foydalanish ham nutqning ta`sirchanligini oshiradi. O`zbekiston istiqloлга erishgach, ma`naviy –ma`rifiy va ta`lim sohasida ham jiddiy o`zgarishlar yuz berdi. Bugungi kun o`qituvchisi har tomonlama yetuk, kamolga yetgan bo`lmog`i lozim. U tushunarli va chiroyli nutq sohibi bo`lish bilan birga zamonaviy fan yutuqlarini, kompyuter texnikasini mukammal o`rganishga harakat qilishi lozim. Istiqloл davrining zamonaviy o`qituvchisi zimmasiga mas`uliyatli vazifalar yuklangan. U yangi pedagogik texnologiya bilan tanish bo`lmog`i, darsni turli usullar asosida tashkil etmog`i, bugungi kunning va zamonaviy o`quvchining barcha talablariga javob topmog`i zarur. Shuningdagina bu bilimli, serg`ayrat, zamonaviy fan yutuqlari bilan qurollangan o`qituvchi jamiyatda hurmat topishi mumkin. Bularni yuzaga chiqarishda ham o`qituvchi nutqi asosiy vazifani bajaradi.

O`qituvchi nutqiga quyiladigan talablar quyidagilar:

1. Imkoni boricha o`rtacha, muloyim ovozda so`zlamog`i.
2. O`zini qo`pol, nojo`ya so`zlardan tiymog`i.
3. Bir maromda, ohangda gapirmasligi.
4. So`zlaganda keraksiz harakatlar qilmasligi.
5. Gapirganda qomatini to`g`ri tutishi.
6. Har qanday og`ir vaziyatda ham jahlini sezdirmasligi.
7. O`z nutqi ustida tinimsiz ishlashi, mashq qilishi.
8. So`zlaganda inson shaxsini kamsituvchi so`zlardan foydalanmasligi.
9. O`quvchining fikrini sabr-toqat bilan tinglay bilishi.
10. O`z ona tilini, adabiy til me`yorlarini chuqur bilmog`i.
11. 10-12 ming so`z boyligiga ega bo`lmog`i.
12. Badiiy kitoblarni mutolaa qilishi.
13. Sinonim-ma`nodosh so`zlarni yaxshi o`rganmog`i.
14. O`z so`zlariga rioya qilgan holda o`qituvchiga xos kiyinishi.
15. Nutqida o`quvchilar ko`nglini ko`taradigan samimiy maqtovlardan foydalanishi.
16. Zamonaviy fan yutuqlarini o`rganmog`i.
17. O`z so`zini dalillar asosida isbotlab berishi.
18. Eng avvalo o`zi aytgan so`zlariga o`zi rioya qilmog`i va o`quvchiga ham nutqi, ham fe`l-atvori, ham kiyinishi, ham odobi bilan namuna bo`lmog`i shart.

O`qituvchi nutqiga qo`yilgan bu talablarni yana ham davom ettirish mumkin.

Mashhur notiq Husayn Voiz Koshifiy “Futuvvatnomayi sultoniyy” asarida nutq odobi haqida ibratli fikrlarini bayon etadi. Ko`ngildagi yashirin sirlar zarurat taqozosi bilan quyidagi holatlarda oshkor etiladi: mazlumlar faryodiga, iltijosiga javob berish, ularga madad berish uchun so`z aytish. Bu holatda ko`ngil yengil tortib, aytilgan so`z mazmuni zolim zulmidan ozod etishi mumkin.

Tilni asrash ham ahamiyatlidir. Koshifiy notiq tilini saqlashi lozim bo'lgan quyidagi holatlarni bayon etadi:

1. Yolg'on gapirishdan, zero yolg'onchi xudoning dushmani.
2. Va'daga xilof gapirish, munofiqona so'z aytishdan.
3. G'iybat va bo'hton gaplardan, chunki bo'hton fosiqlar ishi.
4. Behuda bahsdan, ayb qilishdan, gap tashishdan. Bular shayton vasvasasi.
5. O'zni maqtash va ta'riflashdan. Bu xudbinlikdir.
6. Navkar va xizmatkorlarni-xalqni la'natlashdan.
7. Qarg'ash, duoyi bad qilishdan, chunki bu jonu dilning ofati.

Suxandon Koshifiy o'z asarida tariqat ahlini martabaga erishganlar va martabaga erishmaganlar kabi ikki toifaga bo'ladi.

Shayxlar va martabaga erishganlar uchun suhbatda qaysi qoidalarga amal qilishi haqida gapirib, quyidagi qoidalarga rioya qilishni talab etadi:

1. Har kishining ahvoliga qarab munosib so'z aytsin.
2. Dag'allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin.
3. Gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin.
4. Ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin.
5. Odamlarga naf'i tegadigan ma'noli gaplarni gapirsin.
6. So'zning qimmat-qadri bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qaerga ekmang, unib chiqmaydi.

Martabaga yetmaganlarning ham suhbat odobi sakkiz qoidaga asoslanadi:

1. So'ramagunlariga gapirmasin.
2. Gapirganda ovozini baland ko'tarmasin.
3. Gapirayotganda o'ngu so'lga qaramasin.
4. G'arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin.
5. Qattiq gapirmasin, betga choparlik qilmasin.
6. Pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin.
7. Odamlar gapini bo'lib so'z qotmasin.
8. Ko'p gapirmasin. Chunki ko'p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo'lsa ham o'z gapirishni shior etsin.

Mavzuni xulosalar ekanmiz, fan-texnika va jamiyat rivojlangan sari o'qituvchi zimmasiga yanada mas'uliyatli vazifalar yuklanadi. Chunki u jamiyatdan bir qadam oldinda yurmog'i shart. Shundagina u tarbiyalagan o'quvchi jadal sur'atlar bilan rivojlangan zamon talablariga javob bera oladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining nutqi asosiy vosita hisoblanadi.

Mavzu: Til va nutq.

Reja:

1. Til va nutq, ularning farqli tomonlari.
2. Nutqning turlari.
3. Til madaniyati va nutq madaniyati
4. Nutq faoliyati turlari
5. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti va nutqiy faoliyati.

Adabiyotlar:

1. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent, "O'qituvchi" 1993.
2. E.Qilichev, B.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
3. N.Jo'maxo'ja. Istiqloq va ona tilimiz. T., "Ma'naviyat" 1998.
4. R.Qo'ng'irov, E.Begmatov, Yo.Tojiyev. "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari". T., 1992.

Til va nutq bir - biriga bog'liq hodisalardir. Til uchun nutq moddiy materialdir. Shu material asosida nutq tashkil topadi.

Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo'ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud. So'z, morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy material hisoblanadi. Nutq tuzishda nomoyon bo'ladigan so'z shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy materialdir. Bunda til bir tomondan moddiy hodisa bo'lsa, ikkinchi tomondan ruhiy hodisadir, degan xulosa kelib chiqadi. Tilning ruhiy hodisaligini uning ongda saqlanishi ko'rsatadi.

Biz xotiramizda saqlanayotgan qoidalaridan tezkorlik bilan foydalanib, biror fikrni yuzaga chiqarish uchun so'zlar va grammatik so'z birikmasi va gaplarni hosil qilamiz. Masalan, ongimizda u kitobni qayerdan olganini bilish fikri tug'ildi, deylik. Uni savol tariqasida shunday yuzaga chiqaramiz: Sen kitobni qayerdan olding?

Bunda biz sen, kitob, qayer, ol leksemalaridan: -ni, -dan, -da, -ng grammatikalaridan va so'roq gap modelidan hamda qoidasidan foydalandik. Bu gapni aytish jarayonida ongimizdagi leksemalar alohida morfemalarni qabul qilib, so'z shakllariga aylandi. Til ruxiy hodisadan moddiy hodisaga aylandi. Bu jarayon tugashi bilan tilga tegishli narsalar yana alohidalik holiga qaytadi va ongimizda avvalgidek saqlana beradi. Demak, ma'lum til jamoasidagi kishilar ongida tovush obrazlari sifatida saklanadigan va hamma vaqt haqiqatga aylanishga tayyor turgan so'z, fonema, turli lisoniy qoidalar, gaplarning modellari tilga tegishlidir. Tilga oid narsalar chegaralangan miqdordadir.

Ularning soni turli tillarda turlicha bo'ladi. Qaysi tilda til vositalari nisbatan ko'p bo'lsa, usha til boy til hisoblanadi. Jamoa hayotining butun sohalarini o'zida qamragan til jamiyat taraqqiyoti bilan rivojlanib boradi. Jamiyat extiyojiga javob bermay qolgan til elementlari iste'moldan chiqa boradi, ular urnida yangi ifoda vositalari paydo bo'ladi.

Tilda paydo bo'lgan tushunchalar dastlab ayrim shaxslar nutqida ko'rinadi, so'ng asta-sekinlik bilan butun jamoa ongiga singadi. Uni hamma bir tushunib, talaffuz etadigan bo'lgach, u til ixtiyoriga o'tadi. Aks holda alohida shaxsning nutqiga xos bo'lib qolaveradi. Masalan: o'zbek tilida so'zlovchi ba'zi kishilar nutqida "dizayner" (biror yumushni bajaruvchi shaxs) so'zi uchramoqda. Hali u butunlay o'zbek tilida gaplashuvchi kishilar ongiga singib ketgan emas. Shunday ekan, u hali ayrim shaxslarning tiliga tegishlidir. Uning o'zbek tiliga xos bo'lib qolish-qolmasligini kelajak ko'rsatadi.

Nutq tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda mavjudlikka (haqiqatga) aylangan fikrdir. Nutq, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutq faoliyatining maxsulotidan, ma'lum shaklga kirishishdan iborat.

Nutq ikki xil bo'ladi: ichki nutq va tashqi nutq .

Nutq kishi ongida ham hosil bo'lishi mumkin. Bunda hali reallashmagan til unsurlaridan tashqil topadi. Bu ichki nutqdir. Kishilarning og'iz ochmasdan fikrlashi, munozara yuritishi, o'ylashi ichki nutqqa misol bo'ladi.

Upkadan chiqayotgan havoning nutq organlariga ta'siri, shu ta'sir natijasida ularning harakati bilan aniq tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq tashqi nutqdir. Nutq harakatdagi tildir. Nutq tilga tegishli narsalarni ma'lum vaqt bo'lagida bir- biriga qo'shadi, harakatga keltiradi. Nutq so'z shakllari, erkin birikmalar, so'z tartibi va gaplardan tashkil topadi. Nutq jarayoni tugab, fikr tinglovchiga etib borgach, nutq ham tugaydi. Demak, so'z shakllari, erkin so'z birikmalari, so'z tartibi, gapning turli ko'rinishlari nutqnikidir. Tildagi ifoda vositalari chegaralangan bo'lishiga qaramasdan nutq cheksizdir. Til vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach, ulardan cheksiz miqdorda gaplar tuzish mumkin. Nutq jamoadagi yolg'iz kishi tomonidan yaratiladi va alohida shaxs va kishilarga qaratilgan bo'ladi. Demak, nutq ijtimoiy hodisadir. U jamoadagi kishilarni birlashtirish, ma'lum maqsad sari yo'naltirish imkoniyatiga ega. Jamiyat taraqqiyotida nutq belgilovchi o'rin tutadi.

Til madaniyati va nutq madaniyati.

Til madaniyati deyilganda ana shu tildagi ifoda vositalarining ongli aralashish natijasida hamma tushunadigan va qo'llay oladigan darajaga keltirilganligi, ma'lum davr uchun mosligi, ishlatilish qonun va qoidalari, me'yorlarining qay darajada aniq va mukammal ishlanganligi, sayqal topganligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, til madaniyati deganda, til birliklari va ular imkoniyatlari taraqqiyotining, ular o'rtasidagi munosabatlar hamda shu munosabatlarni ta'minlovchi qonun-qoidalarining ishlanish darajasi tushuniladi.

T.Qudratov bu haqda shunday deydi: "Tilning madaniyati deyilganda, uning so'z boyligi, sintaksisining taraqqiyoti va boyish darajasi, so'z ma'nolarining o'tkirligi, nutqiy ohangning rang-barangligi tushuniladi. Nutq

madaniyati, uning aloqaviy fazilatlari yig'indisi va tizimi bo'lib, ular til madaniyati, til faoliyatida qiynalmaslik, matnning mazmuniy vazifasi va imkoniyati kabi har xil sharoitlarga bog'liq".

Til madaniyati til vositalarining boyligi va rang-barangligidan iborat bo'lib, shu tildan foydalanuvchilarning ongida yashaydi. Lekin bu boylikning o'zlashish darajasi jamoa a'zolarining har birida har xil bo'ladi.

Qaysi shaxs til madaniyatiga tegishli vositalarni o'zlashtirgan va ularni o'z nutqi jarayoniga aylantirgan bo'lsa, o'sha shaxsning nutqi shu darajada madaniyatli bo'ladi.

Nutq yakka shaxs ijodi ekan, uning madaniyati ham shaxsning til imkoniyatlarini qanchalik o'zlashtirganligiga va ulardan nutq sharoitiga mos mohirona foydalana olishiga bog'liqdir.

Tilning lisoniy imkoniyatlarini egallash ikki bosqichdan: bilish va bu imkoniyatlarni chuqur o'zlashtirishdan iborat. Til vositalarini bilish nutqni tinglaganda, ularning ma'nosi va vazifasini anglashda ko'rinadi, ya'ni tinglovchi tinglagan va o'qigan narsalarini tushunadi. Bunday shaxs o'zgalar nutqini yaxshi tushunadi.

Ikkinchi bosqich til sistemasi taqdim etgan imkoniyatlarning katta qismini chuqur o'zlashtirishdan, ularni nutq tezkorligiga aylantirib olishidan iboratdir. Bunga erishgan shaxsning nutq ravon, boy, obrazli, o'rinli bo'ladi. Birinchi bosqichda anglab olingan nutq vositalari ustida doimiy mashq qilish, ularni xotirada saqlashga doimo e'tibor berish, bu imkoniyatlarni nutqiy tezkorlikka aylantiradi.

Nutq faoliyati.

Insonning nutqiy faoliyati 3 ko'rinishda amal qiladi. Bular so'zlash, mutolaa va eshitish. So'zlash deyilganda so'zlovchining ma'lumoti, maslahat berishi, buyurishi, o'ziga noma'lum narsalar haqida so'rashi anglashiladi. So'zlaganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi.

So'zlash monologik va diologik ko'rinishda bo'lishi mumkin. Monologik nutqda bir kishining mulohazalari qarshi savollarsiz va javoblarsiz yuzaga chiqadi, suhbatdoshi tomonidan bo'linmaydi. Diologik nutqda muloqot qiluvchi shaxslar navbat bilan goh tinglovchi, goh so'zlovchi bo'lib turadi.

Mutolaa o'quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli o'quvchi yozma nutqda aks etgan voqea-hodisalardan xabardor bo'ladi, ular ta'sirida xulqida qandaydir o'zgarish paydo bo'ladi. Mutolaa ma'lumot olishning eng muhim yo'lidir. Kitob o'qish orqali kishi ma'naviy etuklikka erisha boradi.

Mutolaa oddiy o'qish, ilmiy o'qishdan iborat. Oddiy o'qiganda o'quvchi uchun yozma nutq mazmuni bilan tanishuvning o'zi maqsad qilib qo'yiladi.

Ilmiy o'qishda o'quvchi asarni tahlil qilishni, undan boshqa maqsad uchun foydalanishni, uning mazmunini qayta bayon qilish kabilarni maqsad qilib qo'yadi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti va nutqiy faoliyati.

Kelajak avlodni tarbiyalashda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Uni kamol topishida o'qituvchining dunyoqarashi ongi, madaniyati, nutqi belgilovchi vositalar sanaladi. O'qituvchilik kasbi yuksak ma'naviyatni, insonparvarlikni, xohlaydi.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda muallimning nutqi katta rol o'ynaydi. Shuning uchun uning nutqi hamma vaqt g'oyaviy yuksak, ravon, yumshoq, dilkash bo'lishi lozim. Nutqda va ishda subutsizlik o'qituvchi uchun noloyiqdir. Har bir nutq bolalarning yosh xususiyatlarini, bilimi va tushunchasini nazarda tutib tuzilishi shart. Shu bilan birga o'qituvchining nutqi yosh avlod ko'z oldida uni o'rab olgan moddiy va ma'naviy dunyoning yangi qirralarini ochib berishni maqsad qilib qo'yadi. O'qituvchining nutqi ta'lim va tarbiya berishning asosidir.

O'qituvchining nutqi imkoni boricha sintaktik jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim. Har qanday bilim va tarbiya, asosan o'qituvchining dars hamda darsdan tashqari kundalik nutqi orqali berib boriladi. Nutqda, u qanday shaklda bo'lmasin, bizning qadriyatlarimizni qattiq xurmat qilinishi lozim.

Pedagogik nutqiy muloqotning o'ziga xosligi o'qituvchining hamma yerda, har qanday sharoitda ham tarbiyachi ekanligi bilan xarakterlanadi. Pedagog o'z tarbiyalanuvchilari bilan ko'proq auditoriyada, darsda nutqiy muloqotda bo'ladi. Uning nutqi ilmiy pedagogik mazmun kasb etadi. Bunday nutqda ilmning turli sohalariga oid qoidalar, atamalar, xulosalar aks etadi. Bunday nutqda har bir narsa o'z urnida, me'yorida bo'ladi. Atamalarga, yangi so'zlarga berilgan izohlar sodda, o'quvchi hazm qiladigan sintaktik qurilmalarda beriladi. Qoida va nazariyalar hayotiy, o'quvchiga yaqin misollar bilan tanishtiriladi.

Mavzu: Xalq og'zaki ijodida va ilk yozma yodgorliklarda
nutq madaniyati masalalari

Reja:

1. So'zlash odobi bayon etilgan xalq og'zaki ijodi janrlari.
2. Mahmud Koshg'ariy til odobi haqida.
3. "Qutadg'u bilig" asarida nutq madaniyati masalalari.
4. Ahmad Yugnakiy asarida tilni tiyish va til jarohati xususida.

Adabiyotlar:

1. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1976.
2. Qudratov N. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
3. Qadimiy hikmatlar. T., 1987.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T., 1990.
5. Ahmad Yugnakiy. Hibbatul haqoyiq. T., 1971.
6. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T., 1963

O'zbek xalqining tarixiy ildizi uzoq asrlar qa'riga borib taqaladi. Insoniyat so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgan kundan boshlab ma'noli nutq tuzishga harakat qilgan. Bu ma'lum ma'noda xalq og'zaki ijodi janrlariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyat hisoblanadi. Odamlar orasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to'xtaydi. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi va avvalo uning o'zini to'la-to'kis o'rganib olishga harakat qilmog'i zarur. Shu ma'noda insoniyat so'z odobiga qo'yilgan talablarni xalq og'zaki ijodi janrlari-maqollar, rivoyatlar, ertaklar, hikmatli so'zlar orqali kishi ongiga yetkazishga harakat qilgan. Chunki badiiy so'z san'ati madaniyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan bir sohasidir. Kishilar turmush tajribalarini, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarini obrazli so'z orqali tasvirlash, bayon etish ko'nikmalarini yarata boshlaganlar. Badiiy so'z tajribasining o'sishi, badiiy did va zavqning takomillashib rivojlanib borishi xilma-xil adabiy janrlarni vujudga keltiradi. Mana shunday janrlardan biri xalq maqollaridir.

Maqollar, hikmatli so'zlar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir. Xalqimizda o'z qadrini bilgan so'z qadrini biladi degan gap bor. O'z qadrini bilgan odam so'zni pala-partish ishlatmaydi, uning asl ma'nosini qidiradi, bilib o'rniga qo'yib gapiradi. Chunki, maqol-so'z ko'rki hisoblanadi. Xalq maqollarida ota-bobolarimiz so'zlash odobiga rioya qilish haqidagi o'gitlarini, pand-nasihatlarini bayon etganlar. Yaxshi so'zlash, shirin gapirish haqida ham bir qancha maqollar yuzaga kelgan:

Yaxshi so'z-ko'ngil podshosi.

Yaxshi so'z filni ham yo'lga solar.

Yaxshi so'zga uchar qushlar el bo'lar,
Yomon so'zga pashsha kuchi fil bo'lar.

Achchiq til-zahri ilon,
Chuchuk tilga jon qurbon.

So'zdan so'zni farqi bor,

O`ttiz ikki narxi bor.

Hikmatni oltin deb bilgan dono xalqimiz kam so`zlab, ko`proq tinglash haqida ham chiroyli hikmatlar yaratgan:

Og`iz bir, quloq ikki,
Bir so`zlab, tingla qirq ikki.

Ko`p so`zning ozi yaxshi,
Oz so`zning o`zi yaxshi.

Gapning qisqasi yaxshi,
Qisqasidan- hissasi .

O`n qatim o`yla, bir qatim so`yla.

Shuningdek, xalqimiz do`sting ham til, dushmaning ham til deb o`qtiradi.

Ko`pchilik odamlar orasida pichirlab gapirmaslik haqida “Gapning yomoni-pichir” deb aytilsa, yomon so`zning dilni jarohatlashi haqida “Tayoq etdan o`tar, so`z suyakdan” deb gapiriladi.

Jamiyat a`zolari o`zaro munosabatlarda so`zlashish odobiga qat`iy rioya qilishlari zarurligi ta`kidlanadi. Kishi aytadigan har bir gapini o`ylab olishi, so`ng so`zlashi lozim. O`ylamay aytilgan so`z kishini ko`pchilik orasida uyalib qolishiga hatto fojiali ahvolga tushishiga sabab bo`lishi mumkin. Bu haqda shunday maqollar mavjud:

Dilda pishir, tilda gapir.

O`ynab gapirsang ham, o`ylab gapir.

Tez so`zlagan tez pushaymon bo`lar.

Og`izga kelgan so`z arzon, ovulga kelgan bo`z arzon.

O`ylanmagan joydan tulki chiqar,
O`ylanmagan so`zdan kulki chiqar.

O`ylamay aytgan tinglamay o`ylar,
Chaynamay yutgan kavshamay o`lar.

O`ylamay so`zlagan og`rimay o`lar.
Epi bilan so`zlaganning qurboni bo`l.

Til odobiga bag'ishlangan maqollar xalqimiz tomonidan juda ko'plab yaratilgan. Bu narsa xalqimizning so'zlash odobiga naqadar mas'uliyat bilan yondoshganligidan dalolat beradi.

Nutq masalasiga bag'ishlangan rivoyatlar, ertaklar yaratilgan. Bir rivoyatda aytilishicha, malika o'z o'g'liga avvalo ona tilini o'rganmoqchi bo'lgan yigitga turmushga chiqmoqchi bo'ladi. Yana bir rivoyatda podsho vaziriga "boshga nima balo keltiradi?"-deb so'raganda, vazir tilni ko'rsatgan ekan.

Xullas, xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan maqollar, rivoyatlar, ertaklarda ham so'zlash odobiga oid bo'lgan hikmatli fikrlar bayon qilingan. Xalqimiz qadim zamonlardan beri so'z odobiga rioya qilish zarurligini o'qtirib kelgan.

So'zning qadri, undan foydalanish, oz gapirib, so'zga ko'p ma'no yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar ustida X-XIII asr mutafakkirlari Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham ibratli fikrlar bildirganlar.

Bu asarlarda so'z odobi, uning fazilatlari, foyda va zararli oqibatlari haqida, tilni tiyish, so'zni kerakli joyda gapirish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ilm-ma'rifat ahlini qadrlash, tildan faqat shirin so'z chiqarishga odat qilish maqbo'l ekani o'qtiradi.

Buzildi bu zamonlar,
Avj oldi ko'p yomonlar.
Kamayib bilimdonlar
Ilmu hikmat yo'qoldi.

Ilm hikmat o'rgangin bo'lma mag'rur,
Maqtanchoqning sharmandasi chiqdi, ko'r.

Mahmud Qoshg'ariy 469 (1076-1077)-yilda "Devonu lug'otit turk" asarini yozadi. 15-yil davomida yozilgan bu asarda O'rta Osiyo yerida yashagan turkiy xalqlar hayotida ma'lumot beriladi. Bu kitobning yagona qo'lyozma nusxasi Istambo'lda saqladi. Uni ko'chirgan kotib Muhammad bin Abu Bakir Damashqiyning xabariga ko'ra, u Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxasidan ko'chirib yozgan.

Kulsa kishi yuzingga,
Ko'rkli bo'lib ko'ringil.
Shirin achchiq so'z suyla,
Yoqmoq uchun o'ringil.

Mahmud Koshg'ariy yoqimli, xushxulq bo'lish haqida shunday deb yozadi:

Boqmas jahon sovuq so`z,
Shilqim yuzsiz baxilga.
Yoqimli bo`l, xushxulq bo`l.
Qolsin noming ko`p yilga.

Olim kishining so`zlaridan o`git olish kerakligi ta`kidlanadi:
Olim kishi so`zidan olgil o`git,
Yaxshi so`zlar ta`siri tilga singar.

Asarda didaktik xarakterdagi she`rlar anchagina. Ularda yaxshi fazilatlarni kasb etish lozimligi, o`ch, kekdan saqlanish, kishilarga yaxshilik qilish kerakligi, tildan faqat yaxshi so`z chiqarishga odat qilish ma`qul ekanligi qayta uqtirilgan.

“Ardam boshi til” (“Odab boshi til”) deb ta`kidlaydi Mahmud Qoshg`ariy. U tilning jamiyatdagi o`rniga katta e`tibor beradi.

Nutq madaniyati masalalariga bag`ishlangan ilk yozma yodgorliklardan biri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg`u bilig” asaridir. Balosog`unda tug`ilgan, adib ushbu kitobni Koshg`arda yozib tugatadi va Mashriq podshosi Tavg`ochxonga taqdim etadi.

Chinliklar “Odobul muluk”, Mochin podshohining zodagonlari “Oyinul mamlakat”, Mashriqliklar “Ziynatul ularo”, eronliklar “Shohnomai turkiy”, ba`zilar “Pandnomai muluk” deb ataydigan bu kitob “Qutadg`u bilig” dir.

“Qutadg`u bilig” xalq og`zaki ijodi traditsiyalari ta`sirida vujudga kelgan yozma adabiyotning ilk yirik yodgorliklaridan biridir. Dostonning mazmuni ham, uning tili va badiiy xususiyatlari ham shundan dalolat beradi. “Yusuf Xos Hojib “Qutadg`u bilig” da juda ko`p xalq maqollari va himkatli so`zlarini ishlatadi va “turkcha masal”, “turklar so`zi” deb ularning xalq og`zaki ijodidan olinganini ochiq-oydin ta`kidlaydi. Ya`ni, albatta og`zaki ijod buyuk atalmish adabiyotning otasi hisoblanadi. Nutq odobi nutq madaniyati namunalari xalq og`zaki ijodida rivojlanib, keyinchalik adabiyotning yaratuvchilari ya`ni yakka yaratuvchilari (shoirilar, yozuvchilar) asarlarida ifodalanib kelingan.

Sharqning mutafakkir shoiri Yusuf Xos Hojib o`z asari “Qutadg`u bilig” da nutq madaniyati masalalariga katta e`tibor bergan. Turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo`lgan “Qutadg`u bilig” asarida so`zlarni to`g`ri tanlash va qo`llash haqida, qisqa so`zlab, so`zlarga iloji boricha ko`proq ma`no yuklash haqida ibratli fikrlar bayon etilgan.

“Bilib so`zlasa so`z bilig sanalur” ya`ni har bir so`zingning ma`nosini bilib, o`z o`rniga so`zlasang gaping ma`noli sanaladi deydi shoir.

Ugush so`zlama so`z biror so`zla oz,
Tuman so`z tugunin bu bir so`zla yoz.

Ya`nikim, ko`p so`zlamagin, kamroq so`zla, ammo ming so`z tugunini bir so`z bilan yech.

Gapirishdan maqsad soʻzlovchi koʻzda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga taʼsirchan, toʻgʻri yetkazish. Bunda nutqning ravonligi, mantiqiyliigi, toʻgʻriligi, aniqligi, taʼsirchanligiga erishish muhim ahamiyatga ega.

Yusuf Xos Hojib soʻz qudratini, ona tilining ichki imkoniyatlarini his etadi. “Men turkcha soʻzlarni yovvoyi togʻ kiyigi kabi bildim. Shunga qaramay avaylab-asrab qoʻlga oʻrgatdim”, deb yozadi.

“Qutadgʻu bilig” asarida nutq odobiga oid ikki boʻlim berilgan. “Tilning fazilatlarini, foyda va zararlar” deb nomlangan bir boʻlimda tilning jamiyatda tutgan oʻrni, foydasi va zarari xususida batafsil mulohaza yuritiladi. Til-zakovat va bilimning tarjimonidir deb yozadi mutafakkir. Til tufayli kishiga roʻshnollik, yaxshilik va yozguliklar keladi. Til odamni ulugʻlaydi, baxtga yetkazadi, shuningdek tilga eʼtibor bermasa odamni beqadir qilib, boshga balo keltirishi taʼkidlanadi.

Til arslon misoli yotur qafasda,
Bexabar boshini u yer nafasda.

Til boshga kulfatlar ham keltirishi mumkin, bunday til boshni kesmasidan avval, men tilimdan kechayin, deydi shoir.

Balo keltiradi boshga bu tilim,
Boshimni u kesmay, qilayin tilim

Har doim inson tilini tiyib yurishi, behuda soʻz soʻzlamasligi zarur ekan, chunki ehtiyotsiz aytilgan soʻz boshni yorib tishni sindiradi:

Soʻzingni tiyib yur, boshing yormasin,
Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin.

Kishi soʻz tufayli podsho boʻladi. Ortiqcha soʻzni soʻzlash kishi boshini egadi, boshga balo keltiradi:

Kishi soʻz tufayli boʻladi malik,
Ortiq soʻz bu boshni etadi egik.

Bilib-tushunib soʻzlangan soʻz donolikdan dalolat boʻlsa, johilning soʻzi oʻz boshini yeydi.

Tilingni avayla-omondir boshing,
Soʻzingni avayla-uzayar yoshing.

Haddan ortiq soʻzlaganlarni ezma desalar, hech gapirmaganlarni goʻng deb ataydilar. Shunday ekan aqlli inson oʻrtacha yoʻriqqa amal qiladi, bu meʼyorga amal qilgan odam yuksaklikka erishadi:

“Nazar solib qarasang, deyiladi asarda, bilimsiz kishi koʻzi koʻr” odamga oʻxshaydi. Inson shunday maʼnoli soʻzlashi lozim ekanki, bu soʻz koʻrlar uchun koʻrar koʻz boʻlsin.

Inson xushxulqlik va ezgu soʻzga ega boʻlsa aslo qarimas ekan. Odamdan meros boʻlib soʻz qoladi, ezgu soʻzgina mangu yashaydi. Mangu nom istasang feʻlingni va soʻzingni ezgu tut, -deydi adib. Odamzoddan agar oltin-kumushlar qolganda ularni sarflab tugatar edik, bu oltinga teng hikmatli soʻzlarni kimda-kim ishga solib, amal qilsa soʻzning oʻzi oltin-kumush keltiradi. Kishi soʻzlaganda baʼzan adashadi, xato qiladi, zakovatli kishi uni tuzatadi, toʻgʻrilaydi. Soʻz tuya burni kabi jilovlangan boʻladi, tuyaning boʻyni qayerga burilsa, oʻsha tomonga ketadi.

Soʻz odam uchun tabiatning oʻlugʻ inʻomi. Soʻz tufayligina inson ulugʻlikka yetishadi. Bilimli bilimni tili orqali chiqarmasa, birovga yetkazmasa, uning bilimi yillab yotgani bilan nur sochmaydi, foyda keltirmaydi.

Yashil koʻkdan indi bu boʻz yerga soʻz
Soʻz bilan insonda yorugʻ boʻldi koʻz.

Ezgu soʻzni soʻzlagan kishigina mangulikka daxldor boʻladi.

“Soʻzlamogʻ yaxshimi, yoki jim turmogʻ yaxshimi ekanligi haqida” ham adib hikmatli fikrlar bayon etadi.

Bilimli odam soʻramaslaridan oldin soʻz soʻzlamaydi. Omonlik tilasang, tilga ehtiyot boʻlgin, deb oʻqtiradi olim, chunki qizil til umrni qisqa etishi mumkin. Boshing omonligini istasang, tilingni tiygin, negaki tiling istagan kunda boshingni yeyishi mumkin. Yusuf Xos Hojib odamlarni ikki turli boʻladi deb yozadi: biri nodonlar-soʻzini yashira olmaydi, biri mollar-u soʻzlay olmaydi. Inson bilimsizlik tufayli soʻzlay olmaydi deydi, adib.

Adib nazdida, kamchilik-donolik yoʻlining boshlanishi. Sergap odam koʻp gapirib, bilim oʻrganishga vaqti qolmas ekan. Til soʻz uchun, yurak, koʻngil shu soʻzdan lazzatlanish uchun berilgan.

Barcha soʻzni eshit, ammo darrov ishona berma, deb nasihat qiladi Yusuf Xos Hojib, uni mantiq tarozisiga solib koʻr, oʻz sirlaringni har kimga ochma bermagin. Zakovatning va tilning koʻrki soʻzdir, odamning koʻrki yuz, yuzning koʻrki esa koʻzdir. “Qutadgʻu bilig” asarida soʻzning qadri, hayotda tutgan oʻrni haqida yana qancha ibratli fikrlar bayon etilgan. Nutq madaniyatini chuqur egallamoqni istagan har bir talaba albatta bu kitobning soʻz odobiga bagʻishlangan oʻrinlarini batafsil oʻqib, oʻrganmogʻi, hayotga dasturamal qilmogʻi maqsadga muvofiq.

XII-XIII asrda yashab ijod etgan, tilni tiyish odobiga oʻz asarida katta eʼtibor bergan adiblardan yana biri Ahmad Yugnakiydir. Adib oʻz asari “Hibbatul haqoyiq” da kishilarni soʻzlaganda oʻylab, shoshmasdan nutqni toʻgʻri tuzishga yaramas keraksiz, dagʻal soʻzlarni ishlatmaslikka, mazmunli soʻzlashga chaqiradi, nooʻrin aytilgan soʻz uchun hijolat chekib, uyalib yurmagin deb ogohlantiradi:

Oʻqib soʻzla soʻzni eva soʻzlama,
Soʻzing kizla, kedik, boshing kizlama.

Sergaplikni qoralagan shoir tilni tiyish odobning boshidir, deydi.

Eshitgil, biliklik naku teb ayur:
Adablar bashi til kutazmak turur.
Tiling bakta tutgil, tishin sinmasun,
Qosh chiqsa bakta tishingni siyur.

Sonip so`zlagan er so`zni so`z sog`i;
O`kush yangshag`an til ey olmas yog`i.
So`zung bo`shlug` esma yilg`a tutpishing,
Yetar boshqa bir kun bir til bo`shlug`i.
Xiradliqmu, bo`lur tili bo`sh kishi?
Tilim boshni yedi bu til, so`z bo`shi...
Iki neng biriksa bir erda qoli,
Bukanda ul erga muruvvat yo`li:
Bir ul yangshir ersa keraksiz so`zin,
Ikkinch yaeg`on ersa ul urning tish...

Eshitgil, olimlar nima deb ayturlar: adablarning boshi til saqlashdir. Tishingni tiy, toki tishingni sindirmasin, agar tilingni tiymasang, tishing sinadi. Er kishi ehtiyot bilan sog`lom so`zlaydi, ko`p gapirgan laqma til ayovsiz dushmandir. Bekor so`z so`zlashdan saqlan, tilning bo`shigi bir kuni boshga yetadi. Tili bo`sh odam aqlli bo`larmidi? Bu tilning bo`shligi kishi boshini yedi... agar kishida ikki narsa biriksa: u o`rinsiz so`zlar bilan laqmalik qilsa, ikkinchidan, uning so`zlari yolg`on bo`lsa, u kishi uchun muruvvat yo`llari bekiladi.

Shoir kishilarni birovni achchiq va yomon so`zlar bilan ranjitmaslikka chaqirib, tishing yarasi bitmas yaradir deydi:

O`chup turma erni tilin, bil, bu til
Bashaqtursa, butmas, butar o`q boshi.

(Tiling bilan o`ch hissini qo`zg`ama o`q yarasi bitib ketadi-yu, lekin til yarasi bitmaydi).

Erk berilgan til bir kun boshga yetadi deydi adib. Ahmoq kishining tili o`ziga dushman, chunki ko`p kishilarning qoni tili tufayli to`kiladi. Ahmad Yugnakiy nasihat qilib, tilingni tiy, so`zingni qisqa qil, bu til tiyilsa, o`zing ham saqlanasan, rasul kishini o`tga tashlovchi tildir, -deydi.

To`g`ri so`z asal bo`lsa, yolg`on so`z sarimsoq piyozdur, sarimsoq piyoz yeb og`izni achitgandan ko`ra, asal yeyish ma`qul.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Sharqning mutafakkir olimlari o`z asarlarida til odobiga, so`z qudratiga katta e`tibor berganlar va nutqning jamiyatda tutgan muhim o`rnini hikmatli so`zlar yordamida ifodalab berishga uringanlar.

Nutq madaniyatini o`rganish har bir kishi uchun zarurat ekan, bu allomalar ham o`z asarlarida notiq oldiga tilni puxta o`rganish, uning lug`aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so`zlashni o`rganish, nutqning mazmuni va shakliga birday e`tibor berish, go`zal va ta`sirchan nutq tuzish, til boyliklaridan maqsadga muvofiq o`rinli foydalanish vazifalarini qo`yadilar.

Bu ilk yozma yodgorliklarda so`zlash odobidan tortib, so`zni kimga, qachon, qayerda va qanday so`zlashgacha bo`lgan nutqiy jarayonlar o`z aksini topadi desak yangilishmagan bo`lamiz.

Inson o`z umri davomida nutqini shakllantirib, takomillashtirib borar ekan, Sharq mutafakkirlari yaratgan bebaho xazinadan foydalanadi va bu o`lmas obidalaridan foydalangan holda go`zal, ta`sirchan, ravon, ifodali nutq yaratishga intiladi.

Mavzu : Hadislarda nutq va nutq odobi haqida.

Reja:

1. Mutafakkirlarimizning nutq odobi haqida bildirgan fikrlari.
2. O`qituvchi nutq haqida.
3. Hadislarda nutq odobi haqida.
4. Shirinsuxanlik insonning ziynati.

Adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. Ma`naviy yuksalish yo`lida T. "O`zbekiston" 1996.
2. Imom Buxoriy. Al jome' as-sahih. T., 1991
3. Mahmudov N. Ma`rifat manzillari T., "Ma`naviyat" 1999.

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. O`rta Osiyoda axloqiy tarbiya o`z an`analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan.

Axloq fan sifatida o`rta asrlarda yuzaga keldi. Bu fanning o`z olimlari paydo bo`ldi, nazariyasi yaratildi. Farobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Sabzovoriy, G`iyosiddin Mansur kabilar axloq fanining mavzui, vazifalari, maqsadining nazariy va amaliy jihatlarini asoslab berishga hissa qo`shdilar. Afsuski, ko`p yillar davomida bu merosni o`rganish, ommalashtirishga imkon bo`lmadi, juda ko`p olimlarimiz hamon xalq uchun noma`lum bo`lib kelmoqda. Aslida esa deyarli hamma davrlarda bu fan taraqqiy etib bordi, yangi-yangi asarlar paydo bo`ldi; axloq va ta`lim-tarbiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan juda ko`p olimlar yetishib chiqdi. Qator mutaxassislarning asarlari asossiz ravishda o`rganilmay kelindi. Ibn Arabiy (XIII asr) "Taqqibo`l axloq" (Xulqiy tarbiya haqida) va "Kitobo`l axloq" (Axloq

kitobi), Abu Bakr Qalandarning (XIII asr) “Qalandarnoma”, Husayn Voiz Koshifiy (XV asr) “Axloqi Muxsiniy”, Poshshoxo’ja Abduvahobxo’janing (XVI asr) “Gulzor” va “Miftoxul adl” (“Adolat kalimi”), Abu Tohir Xo’janing (XIX asr) “Axloqi Muhammadiy”, Abdurahmon Sharafning (XIX asr) “Ilmi axloq”, Salohiddinning (XIX asr) “Mahosini axloq” (Axloq fazilatlari), Abdurahmon Sayyohning (XIX – XX asr) “Me’yoriy axloq”, (“Axloq me’yori”) kitoblari ana shunday asarlardir. Ma’lum bo’ladiki, O’rta Osiyo, xalqlari, jumladan o’zbek xalqi ham boy axloqiy merosga egadir. Ma’lum sabablarga ko’ra, o’zbek xalqi avlod – ajdodlariga axloqiy tarbiya berib kelgan bu boy merosdan bahramand bo’la olmadi.

Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko’rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo’lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko’ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan etkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor etkazish mumkin. Buning uchun so’zlovchi tilni, adabiy til normalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so’zlash ham o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug’at boyligini egallash, bu borada nutqni ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o’rganish orqali erishiladi. O’quvchi uchun eng yaxshi namuna o’qituvchi nutqidir. Buni o’qituvchi har doim o’zida his etib turishi, o’z nutqida hech vaqt odob-axloq, nutq madaniyati normalaridan chiqmasligi lozim. Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo’ladi, tinglovchiga yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo’lsa, keyingi suhbatga salbiy ta’sir etishi mumkin. Ko’p asrlik odatiy an’analarimizga ko’ra, “Assalomu alaykum”ning javobi “Vaalaykum assalom”dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham tumtoqlashib ketdi, ya’ni salom berish uchun ham, uning javobi uchun ham birgina “Salom” ishlatiladigan bo’ldi. Bu tarixiy an’analarimizdan chetlashishdir.

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida vositalar mavjud. O’qituvchi ularni o’z o’rnida ishlatishda hamma vaqt o’z shogirdlari uchun o’rnakdir. Madaniyatli kishi o’z aybini bo’yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so’rashni ham bilishi lozim. O’z aybi uchun kechirim so’rash o’z guro’rini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. “Kechirasiz mendan o’tibdi” yoki “avf eting, bundan so’ng takrorlamaslikka harakat qilaman” deyish bilan kishi o’zining odobliligini namoyish etadi, holos.

Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan “sog’ bo’ling”, “xayr, ko’rishguncha”, “xayr, omonlikda kurishaylik” kabi ta’sirchan iboralar mavjud. O’qituvchi sinfdan chiqayotganda “xayr, sog’ bo’linglar”, “xayr, yaxshi qolinglar” iboralarini ishlatib, o’rinli bo’ladi. Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga minnatdorchilik ifodalaydigan chiroyli ifodalar bor. Ularni

kundalik muomalaga kiritish, o'z o'rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O'qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o'quvchilarni "ofarin", "barakalla", "rahmat", "otangizga rahmat", "minnatdorman" kabi so'zlar bilan rag'batlantirishi mumkin.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tili normalariga sodiq qoladi, adabiy tilning go'zal va ta'sirchanligini o'zida saqlaydi. Adabiy til ma'lum qo'shimchalar, grammatik kategoriyalarning qo'llanishdagi bir xilligi, barkarorligi bilan umumo'zbek xarakterida bo'ladi va shevalardan ustun turadi. Uning ustunligini bir tomondan adabiy normalar belgilaydi.

Hadislarda nutq va nutq odobi haqida

Hadislarda aytilishicha, "Qur'oni karim"da ehsonga loyiq kishilarning birinchi navbatda ota-ona haqi belgilab beriladi. "Al-Isro" surasining 23-24 oyatlarida ota-onaga yaxshilik – Alloh taolaga ibodat qilishdan keyin ikkinchi vazifa sifatida ta'kidlanadi. Ota-ona qanday inson bo'lishidan qat'iy nazar, farzand ularga nisbatan hurmat bilan muomalada bo'lishi kerak. Ota-ona farzandni dunyoga keltirish bilan birga, farzandga ta'lim-tarbiya ham berganligini unutmay, haqqiga doimo duo qilib turishi ta'kidlanadi.

"Qur'on"ning ma'lum oyatlari shirinsuxanlikka bag'ishlanadi. Shirinso'zlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, obrusini orttiradi, hurmatga sazovor qiladi. Shunga ko'ra, "Qur'on"da har bir inson shirinso'z bo'lishi ta'kidlanadi. Boshqa bir oyatda Alloh kishilarni so'zlashganda past ovoz bilan so'zlashga undaydi: "Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz" ("Baqara" surasi, 53-oyat) so'zlashganda ochiq yuzli bo'lish, qo'pollik qilmaslik, xushmuomala bo'lish odoblari hayotda tinchlik va baxt saodatga erishishda yorug' yul sifatida talqin etiladi: "Alloh tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalarimizga) yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiqqo'l bo'lganingizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar". ("Ol - imron" surasi, 159-oyat).

Haqiqatdan ham so'zlashish madaniyati har bir inson uchun eng zarur bo'lgan, unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muhim fazilatdir. "Qur'on"da insonni axloqiy kamolga etkazishda yaxshi kishilar bilan hamsuxbat bo'lish ham katta ahamiyatga ega, deb ko'rsatiladi. Yaxshi kishilar bilan ham, yomon kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo'lganda, albatta uning o'ziga xos odob qoidalari bor. Islomda ruxsat so'rash va salomlashish odoblariga ham e'tibor beriladi. "Nur" surasining 27-28 oyatlarida bu borada aniq tavsiyalar berilganki, bu tavsiyalarga rioya qilish insonning ma'naviy kamolotidan dalolat beradi.

Islomda salomga alik olish xususida "Niso" surasining 86-oyatida "Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo'lmasa) o'sha iborani qaytaringlar", -deyiladi.

Insonning eng go'zal qilib turadigan narsasi, uning shirinso'zligi va xushmuomalaligidir.

“Qur’on”da haqiqiy inson bir-birini kamsitmasligi, boshqalarni xurmat qilishi, shu bilan kishilar o’rtasida totuvlikni mustahkamlashi mumkin ekanligi kabi g’oyalar ham mavjud. Kishilarning bir-birini hurmat qilishi, o’zaro do’stlik aloqalarini mustahkamlashi, kelishmovchiliklarning oldini olishda, holis komil insonga xos bo’lmagan pastkashliklardan saqlanishda ular katta ahamiyatga ega.

Mavzu: “Qobusnoma” da nutq odobi masalalari

Reja:

1. “Qobusnoma” haqida ma’lumot.
2. Asarda suxandonlik haqida.
3. Kaykovusning so’z odobi xususidagi qarashlari.
4. Bola tarbiyasida nutq odobining tutgan o’rni.

Adabiyotlar:

1. Kaykovus. “Qobusnoma”. T., 1986.
2. Qudratov T. Nutq madaniyati masalari. T., 1993.
3. Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
4. G’ulomov A., Qobilov B. Nutq o’stirish mashg’ulotlari. T., 1995.

Sharq ma’naviyati va axloq ilmidagi “Qobusnoma” asari muhim o’rin tutadi. Kaykovusning “Qobusnoma” asari melodiylar 1082-1083 hijriy 475-yillarda yaratilgan bo’lib, bugungi kunda umumjahon madaniyatining ulkan boyligiga aylandi. Vushmagir o’g’li Shamsulmaoliy Qobus muallif Kaykovusning bobosi bo’lgan. Bu nasihatimiz kitobni Kaykovus o’z o’g’li Gilonshohga bag’ishlaydi.

Ma’lumki, X-XI asrlarda ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot taraqqiy etdi. Abu Abdulloh Ro’dakiy, Abulqosim Firdavsiy, Abul Hasan binni Ahmad Unsuriy kabi shoir, olimlar shu davrda yetishib chiqdilar. Kaykovusning “Qobusnoma” asari ham mana shunday ilm-fan jadal sur’atlarda rivojlangan bir paytda dunyoga keldi.

“Qobusnoma” Sharq olimlari bilan bir qatorda g’arb ilm ahlining diqqatini ham o’ziga tortdi. Ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi sababli ham turli tillarga tarjima etildi va butun dunyo xalqlariga tanildi. 1702-1705-yillarda turk tiliga, 1786-87-yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uyg’ur tiliga, 1811-yil nemis tiliga tarjima qilindi. Asli fors-tojik tilida yaratilgan bu asarni ota-bobolarimiz asl nusxasidan foydalangan holda asrlar mobaynida mutolaa qilib keldilar. 1860-yilda mashhur o’zbek shoiri va olimi Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan bu kitob o’zbek tiliga o’girildi. “Qobusnoma” 1881-yilda

Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga, 1886-yilda rus va fransuz tillariga tarjima qilindi. Mashhur rus olimi .Ye.I.Beltels 1953-yilda rus tiliga tarjima qildi.

Vushmagir o'g'li Unsurmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizining qirg'og'ida yashagan Giloe qabilasida tarbiyalangan. Kaykovus 1021-1022 (hijriy 412) yillarda mayda feodal oilasida tug'ilgan. 63 yoshga to'lgan paytida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar bu asarni yozdi.

Asar XI- asrning 82-83-yillarida yaratilgan. Tarixdan ma'lumki Qobus xonadoni Somoniylar davlati hukmronlari bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Somoniylar xonadonini tiklash uchun Qobus uyg'ur xoni Ilikxon bilan janglar olib borib g'alaba qozongan. Ammo Somoniylar davlatini yemirilishdan asrab qola olmaydi. Qoraxoniylar Farg'onadan Xitoygacha tarqalgan turkiy qabilalarni birlashtirib, Somoniylar ustidan g'alaba qozonadilar. Qobus Tabaristonni ishg'ol etadi va shu o'lkaga hukmron qoladi. Qobus nihoyatda ilmparvar, san'atni sevadigan inson edi. U o'z zamonasining barcha ilmlarini egallashga harakat qildi.

Adabiyot muxlisi va shoir bo'lgan Qobus arabda fors tilini chuqur o'rgandi va arab tilida "Nomalar" kitobini yozdi. Musiqa va tabiiyat ilmiga qiziqdi. Hattoki Qobus mashhur o'zbek olimi Abu Rayhon Beruniyning Jurjonda yashab ilm bilan shug'ullanishiga sharoitlar yaratib berdi.

Qobusning o'z davrining barcha ilmlarini egallaganini asardan bilib olsa bo'ladi. Kaykovus ham o'z salaflarining asarlari bilan tanishadi. O'g'liga maslahatlar berish uchun "Qobusnoma" ni yaratadi. Sharq olimlari qadimgi davrlardan boshlab bola tarbiyasiga, so'z odobiga, axloqiy masalalarga katta e'tibor berganlar. Bu tarbiya hind kitobi "Kalila va Dimna", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xusravning "Saodatnoma", "Ro'shnoinoma", Yu.X.Hojibning "Qutadg'u bilig", M. Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", A.Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq", A.Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Vaqfiya" asarlarida o'z ifodasini topgan.

Umumjahon manfaatlarini ifoda etuvchi axloqiy masalalarni o'zida mujassam etgan asarlardan biri "Qobusnoma" 44 bobdan iborat. 4 bobi diniy xarakterda bo'lgan. Sobiq ittifoq davrida diniy xarakterdagi asarlar yetarlicha o'rganilmaganligi sababli, bu 4 bob kam o'rganilgan.

Sharq allomalari axloqiy-tarbiyaviy asarlarining asosini Qur'oni karim suralari, Muhammad payg'ambar faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. "Qobusnoma" ham bundan mastasno emas.

"Qobusnoma" "Parvardigori olamni tanimoq zikrida", "Payg'ambarlarning xilqati zikrida" boblari bilan boshlanadi. Gilonshohga bag'ishlab yozilgan bu "Nasihatnoma" o'sha davr an'anasiga ko'ra bobosi podshoh Shamsulmaoliy Qobus sharafiga "Qobusnoma" deb ataladi. Mo'jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlar kitobning yanada jozibador bo'lishini ta'minlaydi.

Kitob yosh avlodni tarbiyalash, ularning kamolotini ta'minlashning muhim muammolariga doir ilk Sharq pandnomasi hisoblanadi. Asar o'tmishda maktab va madrasalarda "Guliston", "Bo'ston" kabi asarlar bilan bir qatorda darslik sifatida o'qitilgan.

1935-yilda Tehron dorilfununi professori Said Nafisiy "Qobusnoma" ni Tehronda bosmadan chiqardi. Ogahiy tarjimasining qo'lyozma nusxasi O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida va Sankt-Petrburgdagi Saltikov Shedrin nomli kutubxonada saqlanmoqda. Ogahiy tarjimalaridagi asar 1965-1973-1986-yillarda adabiyotshunos olim Subutoy Dolimov tomonidan uch marta nashrdan chiqarildi. "Qobusnoma" axloqiy mavzudagi asar bo'lganligi sababli, unda eng avvalo qanday qilib axloqli, ilimli, dono farzand tarbiyalash yo'llari ko'rsatiladi. 40-bob ham hayotiy masalalarni qamrab oladi. "Qobusnoma" ota va ona haqini bilmoq, hunar afzunligi, qarilik va yigitlik sifati, taom tartibini yeyish bayoni, sharob ichmoq, mehmon bo'lmoq va mehmonga bormoq, ishq odatlari, uxlamoq, hammomga bormoq, ovga chiqmoq, chavgon o'ynamoq, omonatni saqlamoq, uy va yer sotib olmoq, ot sotib olmoq, xotin olmoq, farzand tarbiyalamoq, ilm o'rganmoq kabi turli masalalar yuzasidan keng mulohaza yuritilgan, insonga xos axloqiy sifatlar mushohada asosida tahlil etib berilgan.

"Qobusnoma" ning yettinchi bobi suxandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish masalasiga bag'ishlangan.

Kaykovus bu bobda so'zlovchining nutqi go'zal ma'noli bo'lishi, so'zni nutqda no'rin ishlatmay, o'z o'rnida ishlatish masalalarini yoritib beradi. Kishi yolg'on so'zlamasligi, xalqqa ma'qul keladigan so'z so'zlashga harakat qilmog'i haqida mulohaza yuritadi. Hamma hunardan so'z hunari yaxshiroqdir deydi.

Kaykovus har bir kishi notiq bo'lmog'i lozimligini, ammo yolg'onchi bo'lmasligini ta'kidlab shunday deydi:

"Kishi suxandon, suxango'y (notiq) bo'lishi kerak. Ammo, ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin durug'go'y (yolg'onchi) bo'lmag'il. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozong'il, tokim biror vaqt zururat yuzidin yolg'on so'z desang qabo'l qilg'aylar. Har so'z desang ham rost deg'il va lekin yolg'onga o'xshagan rostni demag'ilkim, rostga o'xshagan durug' durug'ga o'xshag'on rostdin yaxshiroqdur, nedinkim ul durug' maqbo'l bo'lur, ammo ul rost maqbil bo'lmas. Demak, nomaqbo'l rostni aytishdan parhez qil..."

Kaykovus faqat nutq so'zlashni emas, boshqalarning so'zi va nutqidan ibrat olishni o'qtiradi, shu yil bilan ham yaxshi notiq bo'la olish mumkinligini aytib o'tadi.

"Ey farzand, toki qila olsang so'z eshitmakdin qochmag'ilki, kishi so'z eshitmak bila suxango'y (notiqlik) hosil qilur".

Agar farzand yoshligida hech kishining so'zini eshitmay katta bo'lsa, u albatta soqov bo'ladi. Kamolga yetishish jarayonida chiroyli so'zlar eshitsa suxango'y bo'ladi.

Muallif suxandon bo'lish uchun donishmandlar so'zini tinglashni tavsiya etadi. Sovuq so'z bo'lmagil deb o'qtiradi. Xosga xos, oliyga oliy so'z aytish muvofiqdir deyiladi. "Dononing pand-nasihati ko'ngil ko'zin ravshan qilur, nedinkim, ul pand aql va hikmat ko'zining surmasi va to'tiyosidir. Bas, bu toifaning so'zin hushqulog'i bilan eshitmak kerakdur. Bu jamoatning so'zinda manfaat ko'pdur".

"Ey farzand, agar har negakim suxandon bo'lsang, o'zingni bilg'ondan kamroq tutg'il, to so'zlash vaqtida nodon va beburd bo'lib qolmag'aysan. Ko'p bilib, oz so'zlag'il va kam bilib ko'p so'z demag'il".

Demak, kishi donolar so'zini tinglamoq orqali notqlik darajasiga erishar ekan, o'z nutqi ustida ko'p mashq qilishi, xalq oldida nutq so'zlaganda yoqimli va ba'mani gapirishi, xalqning e'tiborini qozonishi zarur. "Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabo'l qilsin. Xaloyiq sening so'z bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar,... har kishining ahvoli o'z so'zi ostida yaxshiringan bo'ladi".

Kaykovus notiq so'zning ma'nolarini ham har tomonlama o'rgangan bo'lishi lozim, deb hisoblaydi.

"Ey farzand, so'z yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notqlik alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang, qushga o'xshaysan, bunday qushni to'ti deydilar!".

Notiq shunday kishiki, uning har so'zi xalqqa tushunarli va xalqning har so'zi unga ma'lum bo'ladi. Suxandon nutq so'zlaganda pushaymon bo'lmasligi uchun har so'z o'ylab gapirmog'i zarurdir.

Kaykovus "Qobusnoma" asarida kishi faoliyatida so'z odobining naqadar buyukligini pand-nasihatlari bilan o'qtirar ekan, turli hikoyatlar keltirib, fikrlarini isbotlab boradi. Shirin va o'rinli so'zlar orqali Xorun-ar-Rashid tushining ta'birini aytgan munajjimning yuz tillo bilan mukofotlanishi haqidagi hikoyat, donishmand Abuzurjmehrning bilmagan narsasini bo'yniga olishi haqidagi hikoyat, donishmand Shayx va Alaviy yigit haqidagi rivoyatlarda so'zning qudrati ochib beriladi.

Bugungi kun o'qituvchisining oldiga kelajak avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash vazifasi topshirilgan. To'g'ri, farzand tarbiyasi avvalo oiladan boshlanadi. Shunday ekan, bola tarbiyasida nutq madaniyati va so'z odobining o'rni katta. Chunki qadim Sharqda bu axloqiy masalaga jiddiy e'tibor berilgan va odob- axloqli inson eng avval muomalali, shirin so'zli deb tan olingan. Kamtar, tarbiyali inson har bir so'ziga e'tibor berishi o'qtirilgan. Shuning uchun ham yosh avlod tarbiyasida nutq odobi muhim masala sanaladi. Nutq madaniyati va so'z odobiga rioya qilmagan farzand tarbiyali inson hisoblanmagan. Demak, Kaykovusning har bir gapi hikmat. Bu kitobni o'qimoq va o'qmoq-mag'zini chaqmoq darkor. Agar ota-ona, qarindoshlar bolaga uyda, ko'cha-ko'yda

soʻzlash odobini oʻrgatishsa, oʻqituvchi jamoat joyida oʻzini tutish qoidalarini oʻrgatadi. Kattalar bola tarbiyasida ibrat namunasi hisoblanadi.

Oʻz aytgan soʻzlariga rioya qilish ham tarbiyali ekanlik belgisidir. “Agar tiling uzun boʻlmogʻin tilasang, qoʻlingni qisqa qilgʻil” –deb nasihat qiladi Kaykovus. Ammo kishi oʻz maqsadi yoʻlida kurashar ekan, doimo ogʻir va vazmin boʻlmogʻi ham maqsadga muvofiq emas. Oʻz maqsadi yoʻlida odob doirasidan chiqmagan har bir inson soʻz ayta bilmogʻi shart. Sharm qilib, uyalib kerakli soʻzni ayta olmaslik bolani ogʻir ahvolga solib qoʻyadi. Shuning uchun yoshlikdan bolaga oʻz fikrini aytish qobiliyatini oilada rivojlantirish zarur. Oʻqituvchi esa bolani mustaqil fikrlashga, soʻz vositasida oʻz fikrini bimalol bayon qila olish qobiliyatini shakllantirishi hayotiy zaruratdir.

Demak, Kaykovusning “Qobusnoma” asari Sharq madaniyatining ulkan yodgorligi “Asarda inson hayotiy faoliyatini qamrab oluvchi turli sohalarga oid falsafiy qarashlar mavjud boʻlib, shu jumladan nutq odobi masalalari xususida ham ibratli hikmatlar bayon etilgan. Shaxs hayotida soʻzning, nutqning oʻrni katta ekan, unga boʻlgan munosabat ham jiddiy masala hisoblanadi. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, “Qobusnoma” asari ham soʻz xususida” nutq madaniyati borasida umumjahon madaniyatining xazinasiga qoʻshilgan ulkan hissadir. Sharqda notiqlik sanʼatining rivojlanishiga bu asarni oʻziga xos salmoqli oʻrni mavjud.

Mavzu: Sharq mutafakkirlarining asarlarida nutq madaniyati masalalari

Reja:

1. Beruniy asarlarida nutq madaniyatiga oid fikrlar.
2. Abu Nasr Forobiy va nutq odobi.
3. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va Voiz Koshifiy asarlarida nutq madaniyati masalalari.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy faoliyatida nutqning oʻrni.

Adabiyotlar:

1. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
2. Beruniy. Hindiston. T., 1965.
3. Homidov H. Oʻlis-yaqin yulduzlar. T., 1990.
4. Maʼnaviyat yulduzlari. T., 2001.
5. Mallayev N. Oʻzbek adabiyoti tarixi. T., 1965.

Sharq qadimdan oʻz mutafakir olimlari bilan ulugʻlanib kelingan. Chunki bu donishmandlarning ilm-fan sohasiga qoʻshgan ulkan merosi umumjahon

madaniyati xazinasiga qo`shilgan ulkan boylikdir. Bu meros bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Sharqda va`zxonlik-balog`a, balog`at (chechanlik, notiqlik) deb yuritilgan va notiqlik san`ati rivojlanishi bilan nutq oldiga qo`yilgan talablar ham murakkablashib bordi. Buyuk allomalardan Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg`ariy, Zamaxshariy, Abu Ya`qub Sakkokiylar ham tilga, lug`atga so`z odobi, grammatika va mantiqshunoslik ilmiga doir asarlar yozganlar, boshqa sohalarga doir yozgan asarlarida ham nutq madaniyati masalalariga katta e`tibor berganlar.

Mana shunday Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy. Butun umrini ilm-fanga baxshida etgan olim Xorazmdagi notinchliklar tufayli bir muddat Jurjonda-shoh Qobus huzurida istiqomat qiladi, ilmiy asarlar yaratadi. Qobusga bag`ishlab “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarini yozdi.

Beruniy “Geodeziya” asarining kirish qismida fanlarning paydo bo`lishi, tarmoqlanib ko`payishi haqida so`z yuritib, har bir fan inson hayotidagi zaruriy ehtiyoj tufayli paydo bo`ladi deb fikr bildiradi. Olimning fikricha –grammatika, aruz va mantiq shu zaruriy ehtiyoj hosilasi, mevasi. Inson nutqi o`z tuzilishiga ko`ra rost va yolg`onni ifodalashi mumkin. Bu munozaraga sabab bo`ladi. Bu munozaralar jarayonida inson rostni yolg`ondan ajratib oladi, rostni yolg`ondan ajratadigan mezon yaratadi. Bu mantiq fani hisoblanadi. Mantiqning sillogizmi (qiyosi) rostni yolg`ondan ajratish vositasi bo`ladi. Nutqdagi shubhali o`rinlar sezilsa ular “mezon” asosida tuzatiladi.

Abu Rayhon Beruniy mantiq ilmini o`rganmasdan uni malomat qiladiganlarga achinib shunday yozadi: “Agar u dangasalikni tashlab oromga berilmasdan gap bilan bog`lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she`r o`lchovi) va mantiq (logika) ni mutolaa qilganda edi, so`z (nutq) zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bo`lardi”. Beruniy nutqning nazm va nasr ko`rinishlari borligini ko`rsatadi.

Nutqning bu turlari ma`lum qoidalar asosida shakllanadi. Nasr nahv (grammatika) qonun-qoidalari asosida, nazm aruz talabiga binoan tuziladi.

Aytilgan so`zning me`yorini o`lchovi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon-nahv nasrda va aruz nazmda bo`lib qoldi, grammatika umumiyroq bo`lib, u nazmni ham, nasrni ham o`z ichiga qamrab oladi.

Sharqda, ayniqsa Movarounnahrda va`zxonlik “Qur`on”ni targ`ib qilish bilan mushtarak holda olib borilgani barchaga ma`lum. Shuning uchun ham so`zning ahamiyati, ma`nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko`p yaxshi fikrlar bayon etilgan.

Abu Rayhon Beruniy ham bu sohada samarali ijod etgan. 152 asarning muallifi bo`lgan Beruniydan bizgacha o`ttizga yaqin asar saqlanib qolgan.

“Geodeziya” asarida olim shakl va mazmun birligiga ham katta ahamiyat beradi. Shakl mazmunga xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi mutafakkir. Mazmunsiz har qanday shakl ham el orasinda e`tibor qozonmaydi. Shuning uchun ham nutqning ikkala shaklida-ham nasriy, ham nazmiy shaklida mazmun

bosh mezon hisoblanadi. Nutq o`zining har ikki shaklida ham so`zlovchi o`z oldiga qo`ygan ma`noni (fikrni) ifodalashi shart. Olim yozadi: “So`ngra so`z mana shu ikki qismda (nasr va nazmda) ham so`zlovchi maqsad qilgan ma`nodan iborat bo`lib qoladi”. Nasriy yoki nazmiy nutqda mazmun bor yoki yo`qligini bilish tuzilgan gaplarni bir-biri bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Bu vazifani esa mantiq fani o`z bo`yniga oladi.” ... agar (biror) ma`noga ega (jumlar) tuzilib, ular (bir-biri) bilan qiyos qilinsa ularda (ma`lum) ma`no topiladi yoki u inkor qilinadi”.

“Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz mantiq fanlari hamkorligidan foydalanishi zarur bo`ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta`sir qilmay iloji yo`q”.

Olim o`z fikrlarini davom ettirib, har qanday tilning o`z grammatik qurilishi, grammatikasi, o`z tartib-qoidalari bo`lishi, bu qoidalarining shu tilda tuzilgan nutq uchun ahamiyati beqiyosligi aytib, bu qoidalar boshqa tillar uchun nozarur bo`lishi mumkin deydi. Ammo olim har bir tilning afzalligi o`sha tilda so`zlovchilar uchun zarurdir deb hisoblaydi.

Beruniy balog`a san`atini arab tiliga xosligi haqida gapirib, bunday nutq texnikasi arablar uchun fazilat ekanligini bayon etadi. Chunki arab tilida balog`a (notiqlik) ning mavjudligi Qur`on targ`ibotida arab nutqining ziynati sanaladi. Notiqlik san`atidan foydalangan kishining yuqori mansabga erishuvi va boshqa bir kishining kambag`allikka yashashiga balog`a aybdor emas deb aytadi. Boshqa tillarda balog`ani egallaganlarning obru topmasliklariga sabab, balki balog`aning arablar tilidan boshqa tillarga ko`chirishda bozor yurishmaganidir, ya`ni notiqlik ilmini har tomonlama chuqur o`rganmaganligidir deydi. Shuningdek, Beruniy “Hindiston” asarida hindlarda Voyakarona deb ataladigan til ilmi borligini, bu ilm-ular so`zlarini tuzatadigan nahv, xat yozishda balog`atli, nutq so`zlashda fasohatli, yetuk va usta qiladigan ishtiyoq ilmidan iboratdir deb ma`lumot beradi.

Sharq allomalari axloqiy-tarbiyaviy asarlarining asosini Qur`oni karim suralari, Muhammad payg`ambar faoliyati va ko`rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. “Qobusnoma” ham bundan mustasno emas.

Yana bir vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to`g`ri so`zlash, to`g`ri mantiqiy xulosalar chiqorish, mazmundor va go`zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo`rligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta`lim berish va ta`lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish” qanday so`rash va qanday javob berish (masalasi) ga kelganimizda bu haqidagi bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya-narsalar) va aksidensiya (hodisalar) ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ism (nom) larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan

chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli soʻzlarni va nutqni qanday tuzishni oʻrgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir: maʼlum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni oʻrgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima toʻgʻri, nima yolgʻon ekanligi haqida hukm chiqaramiz.

Yuqorida koʻrsatilganlardan koʻrinadiki, grammatika va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat berganlar.

Abu Nasr Farobiyning asli ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Ulugʻ Tarxon boʻlib, u “Sharq Arustusi”, “Muallimi soniy” hisoblangan. Olim butun umri mobaynida 160 dan ortiq asar yaratgan. Forobiy asarlari XII-XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga tarjima qilingan Toshkentdagi Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflarining asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Forobiyning 16 risolasini oʻz ichiga olgan “Hakimlar risolalari” toʻplami mavjud. Olim grammatika, mantiq sheʼriyat ilmlar fanlardan toʻgʻri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga soʻz vositasida toʻgʻri tushuntirish, aqliy tarbiya berish uchun xizmat qilishini taʼkidlaydi.

Insonning ibtidosida, avvalo “oziqlantiruvchi quvvat” paydo boʻlib, uning yordamida inson oziqlanadi. Soʻng “tashqi quvvat-tashqi taʼsir natijasida sezgi organlari orqali vujudga keluvchi quvvatlarning besh turi aytiladi”. (teri-badan sezgisi, taʼm bilish, hid bilish, eshitish, koʻrish sezgisi). “Ichki quvvat” ga esda olib, qolish, xayol (xotira, tasavvur), his-tuygʻu, nutq (fikrlash) “quvvat” lari kiradi.

“Mantiq sanʼati kishiga shunday qonunlar haqida tushuncha beradiki, bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sogʻlom fikr yuritishga oʻrganadi” deb yozadi olim. Forobiy mantiq ilmi bilan grammatikaning mushtarakligini taʼkidlab, mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir deydi. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yoʻldan olib borish uchun aqlni toʻgʻrilab turadi. Demak, buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ham insonni sogʻlom fikr yuritishga undovchi mukammal nutqni tarbiyalash yoʻllari haqida ilmiy fikrlarini bayon etadi.

Nutq madaniyati masalalari Beruniy zamondoshi boʻlgan Abu Abdulloh al Xorazmiy asarlarida ham oʻz aksini topgan. Olimning toʻliq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiydir. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona maʼlum asari- “Mafotih ul-ulum” (“Ilmlar kalitlari”) dir. Bu asarning uch nusxasi Buyuk Britaniya muzeyida, bir nusxasi Berlin kutubxonasida saqlanadi. Amerikalik olim K.Bosvort asrimizning 60-yillarida ushbu asarni olti nusxasini Turkiya kutubxonalarida borligini (Istambulda) aniqladi. Asarda nutq madaniyatining baʼzi bir masalalari-devonxona ish qogʻozlari, ularning shakllari, ishlatiladigan islohatlar; shuningdek adabiyotshunoslik fani islohatlari, ularning taʼrifi haqida maʼlumot

beradi. Asarning beshinchi bobida aruz va qofiya ilmi hamda she`riyatda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalari, ularning fazilatlarini va nuqsonlari haqida so`zlaydi. Asarning beshinchi bobi besh bo`limdan tashkil topgan. Beshinchi bo`lim X asr O`rta Osiyo she`riyatiga bag`ishlanadi. Bu shuni ko`rsatadiki, X asrdayoq o`lkamizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ishlangan. “Mafotih ul-ulum” asarining “arab ilmlari qismidagi yetti kalom, o`n ikki bobdan grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan ish yurgizish, besh bob she`r va aruz ilmlariga bag`ishlangan. Kitob arab tilida yozilganligi sababli ham arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari bayon etiladi. Shu o`rinda olim arab she`riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo`lgan aruz haqida ham mufassal ma`lumotlar berishga harakat qiladi”.

Alisher Navoiy, Sa`diy Sheroziy, Husayn Voiz Koshifiy kabi Sharq allomalari ijodida ham nutq odobi qoidalari mufassal bayon etilgan.

Husayn Voiz Koshifiy Navoiyning zamondoshi bo`lib, nutq odobiga doir “Futuvvatnomayi sultoniyy” asarini yozadi. Bu asarda nutq madaniyatiga oid fikrlar bildiriladi, so`z qudrati batafsil ochib beriladi.

“Agar so`z senikimi yoki sen so`znikimi, deb so`rasalar, aytgil: men so`zniki va so`z menikidir, chunki so`z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan va mevani daraxtdan ajratib bo`lmaydi”, deb yozadi olim. Aytilgan so`z odam uchun farzandi jigarbandiday, ota-ona farzandidan topolmagani singari, inson ham o`z so`zidan tonolmaydi. Farzand ham ota-onadan tonolmagani singari, so`z ham notiqniki hisoblanadi. Shuning uchun ham deydi olim, aytiladigan so`zga mas`ullik ota-onaning farzandga va farzandning ota-onaga mas`ulligi darajasida bo`lmog`i lozim. Xalqqa naf`i tegadigan farzand qobil, zarari tegadigan noqobil sanalsa, so`z ham shunga o`xshash bo`ladi. Yaxshi so`z egasiga sharaf keltirib, yomon so`z o`z egasini badnom etadi.

Shuningdek, olim suhbat odobi qoidalari haqida ma`lumot beradi. So`zlash ham, tinglash ham katta mas`uliyat va madaniyatni talab etadi. Agar inson yaxshi so`zlasayu, tinglashni bilmasa, yoki tinglasayu, so`zlashni bilmasa bu ma`naviy noqislik alomatidir. Madaniyatli va ma`rifatli inson so`zni sidqu sadoqat, samimiyat bilan so`zlamog`i, suhbatdosh so`zini jon qulog`i bilan, diqqat-e`tibor, xayrixohlik va hamdardlik bilan tinglamog`i maqsadga muvofiqdir.

Suhbat va nutq odobida madaniyat va fahm-farosat bilan savol-javob qilish, so`rashish ham muhim o`rinda turadi.

Mashhur notiq Koshifiy o`z suxandonligi davrida bu qoidalariga to`la rioya etishga harakat qilgan va bo`lajak notiqnlarni ham bu qoidalar asosida ish yuritishga undagan.

O`zbek adabiyoti tarixida Bobur lirikasi, “Boburnoma” asari nutqning go`zal namunalaridir. “Boburnoma” nihoyatda ravon va go`zal tilda yaratilgan. Shoir ham ommabop yozishni ma`qul ko`rgan va o`g`li Xumoyunga yozgan xatida birovga yozgan maktubni bir necha bor o`qish, uning ravonligiga, so`zlarning ko`zda tutilgan ma`nosi to`g`ri aks ettirayotganligiga ishonch hosil

qilgandan so'ng jo'natishga chaqirdi. Chunki, so'zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo'lgan fikrni xiralashtiradi, o'quvchini qiynaydi. Bu haqda "Boburnoma" da shunday fikrlar bayon etiladi: "...Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'quyolmas eding. O'quyolmagandan so'ng albatta tag'yir bo'lur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qusa bo'ladur, vale asru mug'laqdur. Nasri muammoni hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni to bila bitibsen. Qulunjni yo bilan bitibsen. Xatingni har tavr qilib o'qusa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsad tamom lafhum bo'lmaydur. G'olibo xat bitirda kohilliging ham ushbu jihatindur. Takalluf qilmay deysan, ul jihatdin mug'laq bo'ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qig'uvchig'a" Bobur o'zbek harbiy notiqlarining zabardast vakili bo'lgan.

Tarixnavis shoir Muhammad Solih bu haqda shunday deb yozadi: "Mavloni Bobur Mirzo nutq so'zlaganda so'z bilan tog'ni narm aylardi".

O'zbek mutafakkirlari nutq ma'nosida "nutq", "til", "so'z" atamalarini ishlatganlar. Eng ko'p uchragani "so'z" atamasidir. Vaziyatga qarab til, so'z, nutq o'rnida qo'llana bergan.

Mavzuni xulosalar ekanmiz, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni chuqur o'rganish, uning lug'aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so'zlashni o'rganish, nutqning ichki va tashqi ko'rinishiga (shakl va mazmuniga) birday e'tibor berish, ravon va ta'sirchan nutq tuza bilish, til boyluklarini o'rinli va maqsadga muvofiq ishlatish vazifalarini qo'yadilar. Sharq mutafakkirlari avvalo o'zlari madaniyatli shaxs sifatida notiqlik ilmini o'rganganlar, so'z qudrati haqida ibratli fikrlar bildirganlar va bu notiqlik qoidalariga rioya qilganlar. Nutqiy madaniyatimizni rivojlantirishimiz uchun ham Sharq mutafakkirlarining nutq odobi haqidagi qarashlarini o'rganmoq lozim.

Mavzu: Navoiy ijodida nutq madaniyati masalalari

Reja:

1. Mutafakkir asarlarida nutq madaniyati xususida.
2. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida til va tafakkur masalalari.
3. "Mahbub ul-qulub" da voizlar va til odobi haqida.
4. "Xamsa" dostonlarida "so'z ta'rifi".
5. "Nazm ul-javohir" da so'z qudratining ulug'lanishi.

Adabiyotlar:

1. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1976.
2. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.

3. Nusratullo Atoulo o'g'li Jumaxo'ja. Istiqlol va ona tilimiz. T., 1998.
4. Qilichev B., Qilichev B.E. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
5. Hikmatlar xazinasi. T., 1977.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. II tom. T., 1978.

O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida o'zbek tili boyliklarini namoyon etuvchi mashhur asarlar yaratdi. Navoiyning sa'y-harakatlari tufayli XV asrda o'zbek tili olamga dong'i ketadigan adabiy asarlar yaratishga qodir til ekanligini isbotladi.

Bobur, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Munis, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Fitrat, Behbudiy, So'fizoda kabi mutafakkir shoir va yozuvchilarning asarlarida Navoiy boshlab bergan o'zbek mumtoz adabiy tili me'yorlari mukammalashib bordi.

Navoiy o'z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. "Mahbub ul-qulub" asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritisa, "Muhokamat ul lug'atayn" asarida o'zbek adabiy tilining boyligini e'tirof etdi. Nainki e'tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidladi. So'zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo'lmas ekan, tilning, so'zning cheksiz imkoniyatlari ruyobga chiqib chiqmay qolaveradi. "Majolisun-nafois" da so'zning voizlari hayotida tutgan o'rni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi. "Nazmul javohir" asarida esa so'z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o'tiladi. Tarixdan ma'lumki, Navoiyning o'zi ham mohir notiq bo'lgan va shirin kalomi, o'tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o'z asarlarida ham xaloyiqqa naf'i tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirin-zabon so'zlar so'zlashni, chiroyli va ravon nutq tuzish yo'llarini o'rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan.

"Nazmul javohir" asarida til insonni hayvondan ajratuvchi gavhardir, deb ta'kidlaydi.

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Tirik insongina so'zlash qobiliyatiga ega, so'z tufayli u tirik ekanligini isbot etadi. So'z do'stdan, yoru-birodardan xabar beradi. Insonni hayvondan judo qilgan ham so'z ekan, demak dunyoda so'zdan gavhari sharif-ulug' narsa yo'qdir.

Kishining ko'ngli daryodir, so'z esa dur, so'zlovchi g'avvosga o'xshaydi. Dur turli bo'lgani singari so'z ham turlicha bo'ladi. Yaxshi so'z kishiga jon baxsh etsa, yomon so'z insonni halok etishi ham mumkin. Til-ma'rifat va adabiyot quroli ekan, so'z so'zlashdan maqsad ma'no ifodalashdir deydi shoir.

“Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma`nidir va mazkur maxluqotdin maqsud insondur va ul mahzari maoniy va bayon, so`z aning so`zidadir va takallum aning kalomida bordur”.

Ya`ni, ma`no tufayli so`z tilga keladi va ul so`zdan ma`no fahm bo`ladi. Navoiy til va tafakkurni uzviy birlikda oladi. U ma`no birlamchi, shaklni ikkilamchi deb hisoblaydi va ma`noga so`zning joni deb ta`rif beradi.

Navoiy tilni o`sib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o`zaro aloqada bo`ladi, bir-biriga chatishadi deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug`ma ekanligini ta`kidlaydi. “Muhokamatul-lug`atayn” asarida arab tili *“kalomi ilohiy”* deb ulug`lanadi, fors va turkiy tili solishtiriladi. Olim bu asarda ikki tilning lug`at boyligi, so`z yasalishi, fonetik tarkibi, stilistikasi kabi xususiyatlarini chog`ishtirib, badiiy imkoniyatlari jihatidan turkiy tilning fors tilida qolishmasligini isbotlaydi. Hattoki, fors-tojik tilida, ekvivalenti bo`lmagan o`zbekcha so`zlarni misol keltiradi. “Muhokamatul lug`atayn” asari bevosita tilshunoslining nazariy muammolarini hal qilishga, o`zbek tilining boshqa tillar orasida tutgan o`rnini belgilab berishga, o`zbek nutqi madaniyatini o`rganishga qaratilgan. Mutafakkir asarlarida o`zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonim va omonimlaridan, xalq ta`biri, maqol va matallaridan, frazeologik, ideomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalandi.

Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag`ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari “Mahbub ul-qulub” dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so`zlovchi dilidagi fikrni to`g`ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi.

“Saodatbaxsh ruh zuloliga matla` ham til. Tilga iqtidorlig`-hakimi xiradmand, so`zga ixtiyorsiz-layni najand. Tilki fasih va dilnazir bo`lgay, xubroq bo`lgay agar ko`ngil bila bir bo`lgay” deb yozadi Navoiy.

Ma`nosi: “Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tilga kuchi yetadigan kishi aql podshosidir: so`zga ahamiyat bermaydigan kishi la`natlangan, pastdir. Til go`zal va dillarni olovlantiruvchi bo`lishi bilan birga, so`zlovchining dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq bo`ladi”.

Navoiy til deganda nutqni ko`zda tutgan. Til, ya`ni so`z o`zining ko`p yaxshi fazilatlarini bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo`polligi, maqsadga muvofiq bo`lmasligi so`zlovchiga zarur yetkazishini alohida ta`kidlab o`tadi.

Mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so`zlash odobi haqida, o`ylamasdan so`zlamaslik lozimligi haqida: “Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig`liqqa evruldi, zarari oni bo`ldi. Chuchuk so`z sof ko`ngullarga nushdir... So`zni ko`ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko`nglungda bo`lsa, tilga surma” deydi. Buning ma`nosi shundayki, tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar yetkazadi. Qandni mast qiluvchi aroq qilsalar, harom bo`ladi.

Chuchuk so`zni toza ko`ngullar simiradi... So`zni ko`ngulda pishitib olmaguncha so`zlamagin, ko`nglingda bo`lgan har qanday fikrni ham ayta berma. Nutqdan maqsad fikr anglatishdir: “Ammo so`zlar va saboqlardin murod ma`nodur”.

Nutq nazariyasi bilan jiddiy shug`ullangan shoir “Mahbubo`l-qulub” asarining 24-bobini voizlik ilmiga bag`ishlaydi. Navoiyning o`zi ham notiqlik san`atini o`z davrida yuksak darajaga ko`targan. “Tilga ixtiyorsiz-elga e`tiborsiz” yoki “Ma`dani inson gavhari so`z durur, gulshani odam samari so`z durur” deb yozadi. Navoiy 24 bob “Nasihat ahli va voizlar zikriga” bag`ishlangan bo`lib, shoirning fikricha “voiz uldurki, majlisg`a kirgan to`lg`ay va to`la kirgan holi bo`lg`ay”.

“Mahbubul-qulub” da “Og`ziga kelganni demoq-nodonning ishi”, “Aytar so`zni ayt, aytmas so`zdan qayt”, “Chin so`z-mo`tabar yaxshi so`z-muxtasar” kabi hikmatli so`zlar, maqollar anchagina. Navoiy ham shu mazmundagi baytlar yaratadi. Shoir nazarida so`z o`likni tiriltirish kuchiga ega:

Ham so`z ila elga o`limdin najot,
Ham so`z ila topub o`luk tan hayot.
Ba`zan bir so`z bilan tirik vujud,

Salomat inson ham jonsiz o`lukka aylanishi mumkin. Yolg`on so`z ham shunday qudratga ega:

O`luk gar andin erur joni pok
Valekin tirikni ham aylar haloq.

Navoiy ta`kidlashicha, shirin so`z bilan ko`p ishlar amalga oshadi. Achchiq may, boda ham chuchuk til bilan uzatiladi. Hatto “chuchuk so`z elga izhor” etish orqali u kim bo`lmasin, “har nechakim ag`yor zurur yor” ga aylanadi.

Xalqimiz tili achchiq, inson ko`ngliga ozor beruvchi kishilarga “tili zahar”, “tilidan zahar tomadi” kabi nisbatlarni beradi. Bunday kishilardan hamma o`zini chetga tortadi. Dildan suhbatlashishni istamaydi, aksincha, zarurat yuzasidangina muomala qilishga majbur bo`ladi. Navoiy bu taxlit “achchiq so`z, anfos” lik kishilardan “istig`no” zarurligini o`rinli ta`kidlaydi:

Har kimki achchiq bo`ldi so`zi, anfosi,
Bor suhbatidin xalqning istig`nosi.

So`zlashning ham me`yorlari bor. “Boisi g`aflat ko`p so`z”- ko`p gapirish ham g`aflat, g`ofillikka sabab. Har qancha suxandon bo`lsa ham, imkon bo`lguncha so`zni qisqa gapirish zarur. To`g`ri va rost so`z mavjud. Yolg`on va yolg`onchilik bor. Shoir o`gitiga so`zlayotgan kishilarning kimligi, qandayligi uning ko`rinishi bilan emas, so`zlanayotgan gaplaridan ayon bo`ladi. Ko`ngilga kelgan har bir fikrni tilga chiqaraverish beburdlikka olib keladi. Behuda, beburd va masxaraomuz so`zlash kishining o`ziga ozor yetkazadi. Tili kesilishiga olib

keladi. So`zni ko`ngilda pishitib, mulohaza qilib, so`ng “tilga surmoq” kerak. Har bir kishining so`zi-uning ko`nglini aks ettiradi. Shoir aytmoqchi:

Senga bor esa so`z bilurdin mazoq
O`zim sari boqma, so`zim sari boq.

Navoiy “Xamsa” ning deyarli barcha dostonlarida “So`z ta`rifida...” sarlavhasi ostida boblar ajratadi. O`zining g`azallaridan birida so`z haqida fikr yuritir ekan, “Xamsa” dagi har bir harf (so`z emas, harf) o`zida ko`plab durlarni jamlagan “bahr erur” ligini ta`kidlaydi. Kengroq mazmunda esa, har bir so`zga singdirilgan chuqur mohiyat va ma`no nazarga olinsa ham xato bo`lmaydi.

“Xamsa” ichraki, anga har bir har
Bahr erur, zimnida yuz durri shingraf.

“So`z” deganda Navoiy nimalarni nazarda tutadi? Professor A.Hayitmetov shunday yozadi: “Navoiy “so`z” ni o`z asarlarida ko`p ma`noda ishlatadi. U “so`z” termini ostida insoniyatning hamma ma`naviy boyligini-alohida ijtimoiy kategoriya bo`lgan tilni ham, ideologiya shakllaridan hisoblangan falsafa va badiiy adabiyotni ham tushuna beradi hamda ularni ko`p vaqt bir-biridan farq qilmaydi”.

Navoiy “so`z” haqida gapirganda qo`yidagilarni e`tiborga oladi:

1. So`z-til ma`nosida.
2. So`z-muomala, gapirish, nutq mohiyatida.
3. So`z-badiiy ijodda, mazmunni shakllantiruvchi vosita tarzida.

Navoiy talqinicha, so`zning (tilning) insoniyat hayotidagi o`rni beqiyos. U insonning insonligini, barcha jonzotlardan yuksak ekanligini anglatuvchi unsur. Ollohning bashariyatga in`om etgan ulug` ne`mati tildir:

Tengriki, insonni qilib ganji roz,
So`z bila hayvondin anga imtiyoz.

Tangri, insonni “ganji roz”-sirlar xazinasi qilib yaratdi. U bir mo`jiza. Odamning hayvondan “imtiyozi”-farqi “so`z bila”-til bilan bo`ldi. Agar bu baytda gap bevosita til haqida borayotgan bo`lsa, ba`zan til va so`z alohida-alohida hodisa sifatida talqin etiladi. Shoir tilni po`lat xanjarga qiyoslaydi. So`z esa, shu xanjarga bezavk beruvchi, unga qadalgan injulardir: Mana bu baytda ham shunga xos ifoda:

So`z bila kufr ahli musulmon bo`lib,
So`z bila hayvon degan inson bo`lib.

Birinchi misrada “Shirin so`z”, “ta`sirli so`z”, “nasihatomuz so`z”, “yumshoq va muloyim so`z” va xokazo-gap bilan “kufr ahli” iymonsiz, e`tiqodsiz kishilar ham “musulmon” bo`lishi, to`g`ri, yo`lga kirishi ta`kidlanadi. Ikkinchi misrada esa, odamni hayvondan ajratuvchi vosita-til haqida gap boradi. Yana bir o`rinda tilni lola bargiga, so`zni esa, o`sha lolaga tuzilgan “jola”-chiroyli shudringlarga qiyoslaydi:

Til bu chamanning varaqi lolasi,
So`z zurlaridan bo`lubon jolasi.

So`zdin o`lukning tanida ruhi pok
Ruh dog`i tan aro so`zdin halok,
Donai dur so`zini afsona bil
So`zni jahon bahrida durdona bil.

“Hayrat ul- abror” dostonining So`z ta`rifida bobidan olingan ushbu parchada chuqur falsafiy ma`no ifodalanadi.

Navoiy so`z haqida gapirganda “So`z iqlimi”, “So`z mamlakati”, “So`z jismi”, “So`z kishvari” birikmalarini ishlatiladi. So`z ham Navoiy nazdida o`ziga xos olam, rangin shakllarga ega mamlakat. Bu iqlim mavjudotlaridan har kim o`ziga foydalanadi. Uning “shirin so`z”, “achchiq so`z”, “to`g`ri so`z”, “yolg`on so`z”, “chin so`z”, “xushomadomuz so`z” kabi ko`rinishlari mavjud shoir ta`rifida.

Navoiy “Hayrat ul-abror” da badiiy til unsurlaridan keng foydalanadi.

Dostonda hikmatli so`zlar, xalq maqollari, xalq ijodining boshqa turlari ko`p uchraydi.

Tor ini sichqonga solib erdi egam,
Tuyruqiga bog`ladi g`irbol ham.

Yoki “Bir deganni ikki demak xo`p emas”. Bir so`zni hadeb qaytaraverish-ezmalik. Chunki “So`z chu takror topti dilkash emas”. Xushomadli, ta`maga moyil yoki laganbardona so`z, uni hayot mazmuni, tirikchilik manbaiga aylantirish ham illat. Navoiy talqinicha bunday kishilarning tili kesilsa yaxshi:

Chu xushomad demakni boshlasa kosh,
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

Ha, Navoiy so`zni ajib, sehrli va qimmatbaho gavhar sifatida e`zozlaydi. Ko`pgina baytlarda, ayniqsa “Xamsa”, “Mahbubo`l qulub” singari asarlarida so`z, uning o`rni, inson hayotidagi ahamiyati, so`zlash madaniyati, so`zning badiiy ijoddagi mavqie, so`z odobi kabi tomonlar xususida mulohazalar bildiradi. Shoir nazarida “So`z jahon bahrida durdona”, inson qalbining ma`dani- “Ma`dani inson guzari so`z”, “gulshani odam samari”, “ajab guzar”, “bahru mavjvar”, “dur”, “javhari ruz”, “aytib sovumas tarona”, “olib qurimas xizona” - tuganmas xazina:

Aytib sovumas tarona sen-sen,
Olib qurumas xizona sen-sen.

Demak, Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida so`zning qudratli vosita ekanligini, insoniyat hayotida bu noyob gavharning qaydarajada yuksak mavqeini egallaganligini ta`kidlab hikmatli durdona baytlar yaratgan.

Navoiy “Munshoat” asarida ham oʻzbek adabiy tilida mukammal ish qogʻozlarini yuritish mumkinligini yozib qoldiradi va namunalar beradi.

“Nazmul javohir” (“Nazmlar javohiri”) asarida shoirning axloqiy qarashlari bayon etiladi. Asarning anʼanaviy natʼat qismidan soʻng bashariyatni nutq sharafiga sarafroz etilgani taʼkidlanadi.

Soʻzni “inson vujudi ummonidin zohir” boʻluvchi “jonbaxsh javhar” va ravonbaxsh luʼluʼ” (gavhar) ga nisbat qilinadi.

Navoiy soʻzni uch qismga boʻlgan: aʼlo, avsat, adno, yaʼni yuqori, oʻrta, quyi “Soʻz bogʻi ajab gulistonidurkim anda jonbaxsh atrliq ashjori mavzun va ruhparvar royihaliq rayohini gunogun bisyordur va lekin foydasiz xas va xashoki balki zararliq xori haloki ham bordur”:

Lekin chu bahor jilvaogʻoz qilur,
Boʻstoni aro gul shoʻxlari noz qilur.
Gar zogʻ tikan aro vatan soz qilur,
Bulboʻl bori gul bargiga parvoz qilur.

Soʻzlovchi soʻz maʼnosiga eʼtibor qilishi, qisqa, ravshan va muloyim qilib soʻzlashi lozim, deydi shoir.

Kim oz dedi nuqta ayshu kom oʻldi anga,
Soʻz qoidasida intizom oʻldi anga.
Haddin oʻta har kimki kalom oʻldi anga,
Ul navʼ kalomdin malom oʻldi anga.

Shuningdek, dilozorlik, achchiq til inson koʻngliga oʻtkir nayza ogʻrigʻidan ortiq zahm yetkazadi deydi shoir.

Navoiy boshqa asarlarida tilni azob chekib oʻrganmagan kishining nutqi ravon boʻlmaydi deb hisoblaydi:

Har kimsaki nutqi farovon boʻlmas,
Til ranjiga qilmoqligi imkon boʻlmas.

Navoiy inson nutqini boʻlboʻlga qiyoslaydi. Bulboʻl soʻz tufayligina sayraydi.

Gulshane keldi jismi insoniy,
Nutq oning boʻlboʻli xush ilhoni.
Boʻlmasa soʻz, ajab balo boʻlgay,
Bulboʻli nutq benavo boʻlgay.

Xulosa Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq sanʼati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

1. Tilni, soʻzni qadrla uni hurmat qil.
2. Yaxshi soʻzlay olish (nutq) -sanʼatdir, noyob hunardir. Uni egallashga intilgin.

3. Kishining soʻzi, (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi.
4. Xushmuomala, shirinsoʻz boʻl. Tiling bilan kishilarga ozor berma.
5. Boʻshogʻiz boʻlma, suhbat sirlarini saqlashga oʻrgan.

Qaysi majlisdakim eshitsang soʻz, ning
 Bilgil ul soʻz sanga omonatdir,
 Gar ani oʻzga yerga naql etsang,
 Ul omonatga bu xiyonatdir.

Navoiy oʻzbek adabiy tilini, rivojlantirish, bu tilda goʻzal asarlar yaratish, oʻzbek tilini yuqori mavqega koʻtarish, uni xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qiladi. U oʻzbek tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, turkiy tilga beeʻtibor boʻlgan kishilarga munosib javob bera oldi. Oʻzbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi.

Navoiy oʻzi berayotgan maʼlumotlarning aniq, toʻgʻri boʻlishiga ham eʼtibor beradi.

Nutq madaniyatining asl mohiyati Navoiy asarlarida oʻzining yorqin dalilini topdi desak maqsadga muvofiq boʻladi.

Ulugʻ shoirlarimizning, qolaversa oʻtmishda oʻtgan koʻplab buyuk zotlarimizning merosi bugungi kunda chuqur eʼtibor bilan oʻrganilayotgani ham bejiz emas. Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari, nutq va suhbatlarida bobokolonlarimiz yaratgan merosning bugungi kundagi oʻrni va ahamiyati qayta-qayta taʼkidlanmoqda. Yosh avlodni kamol toptirishda ularning oʻrni aniq qayd etilmoqda. Bu jihatdan hazrat Navoiyning, u kishidan bizgacha yetib kelgan ulkan adabiy yodgorliklarining ham salmogʻi yuksakdir.

Xalqimiz mustaqillikka erishgandan soʻng buyuk shoirimizga yana ham boʻlakcha hurmat va ehtirom koʻrsatilmoqda.

Mavzu: Oʻqituvchi ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari.

R E J A:

1. Til, nutq, matn haqida tushuncha.
2. Tasvir, ogʻzaki bayon etish .
3. Fikrni ogʻzaki bayon etish usullari.
4. Fikrni yozma bayon etish yoʻllari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. “Oʻzbekiston” T., 1997
2. T.Qudratov. Nutq madaniyati asoslari. Toshkent, “Oʻqituvchi” 1993.

3. E.Qilichev, B.E.Qilichev. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Buxoro, 2002.
4. N.Jo'maxo'ja. Istiqlol va ona tilimiz. T., "Ma'naviyat" 1998.
5. R.Qo'ng'irov, E.Begmatov, Yo.Tojiyev. "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" T., 1992.

O'qituvchi o'z ish faoliyatida fikrni ifodalashning xilma-xil shakllari va janrlaridan foydalanadi. Ularning har biri til materiallari asosida yuzaga keladi. Nutq va til alohida hodisalar bo'lsa ham, ularni bir-biridan ajratib qarab bo'lmaydi.

Til- ma'lum kishilar jamoasi a'zolarining muloqoti uchun muhim va asosiy vosita hisoblangan o'ziga xos belgilar sistemalaridan biri bo'lib, jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun, madaniy tarixiy an'analarni avloddan-avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi.

Nutq- ifodalangan ma'lumot talabiga mos holda til qoidalarini asosida tuzilgan til belgilarining tartibidir. Til nutqqa aylangach, moddiy ahamiyat kasb etadi. Nutq - nutq (a'zolari) organlari harakatining natijasi sifatida paydo bo'ladi. Nutq a'zolarining harakati nutq faoliyati hisoblanadi. Nutq faoliyati deganda inson organizmining nutq tuzish uchun zarur hisoblangan ruhiy-fiziologik ishining yig'indisi tushuniladi.

Aniq aytilgan (yoki yozilgan) bir gap yoki o'zaro mantiqiy boglangan gaplar yig'indisi **nutqiy asar** deyiladi: "Nutqiy asar" tushunchasi og'zaki yoki yozma nutqning har qanday parchasini ham, xalq og'zaki ijodi asarlari va badiiy yozma adabiyotning tugallangan asarlarini ham o'z ichiga qamraydi. Har qanday nutqiy asar matn sifatida yuzaga chiqadi.

Matn deb u yoki bu holda tugallangan mazmun (ma'no) va nutqning birligini o'zida shakllantirgan hamda ifodalagan og'zaki yoki yozma asarga aytiladi.

Matnning belgilari quyidagilar:

1. Matn gap yoki gaplardan tashkil topadi.
2. Matndagi gaplar o'zaro ichki (mantiqiy) va tashqi (grammatik) bog'liqlikda bo'ladi.
3. Matnda u yoki bu hodisa-voqea haqidagi mazmun bo'ladi.
(Misollar keltiriladi.)

So'zlovchi matn mazmunini turli usullarda yuzaga chiqarishi mumkin. Bunda uch janr-tasvir, hikoya qilish, mulohaza alohida ajralib turadi.

Tasvir - nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali harakatlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini ko'rsatish usuli tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan shaxs, narsa yoki voqea-hodisani tinglovchi tasavvurida yorqin shakllantirish uchun ishlatiladi. (Misollar beriladi.)

Hikoya qilish. Bo'lib o'tgan va yuz beradigan voqea-hodisalarni batafsil so'zlash hikoya qilish hisoblanadi. Kichik hajmdagi nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilishda

voqealar batafsil yoki ma`lum qisqartishlar bilan bayon etilishi mumkin. Bunda har bir narsa va hodisa o`z nomi, sifatleri bilan bayon etiladi.

Mulohaza. Ko`zatilgan, eshtilgan yoki o`qilgan narsalar ustida fikrlash, uning turli tomonlarini ko`z oldiga keltirish mulohaza hisoblanadi. Kishi mulohaza orqali yuz bergan bergan voqealar haqidagi haqiqatni topa oladi. Buning uchun mulohaza tugri, ilmiy asosda bo`lishi lozim. "Narsalarning haqiqatini bilish faqat farosat yo`li bilan amalga oshadi" (Ibn Sino).

Yuqoridagilarning barchasi o`qituvchi ish faoliyatiga bog`lanadi.

Fikrni og`zaki bayon etganda o`qituvchi suhbat, muhokama, munozara usullaridan foydalanadi.

Suhbat. Ma`lum bir mavzu yuzasidan dialog tarzida ikki yoki bir necha kishi o`rtasida bo`lib o`tgan nutqiy muloqot suhbat deyiladi. Suhbatning xususiyati shuki, suhbatdoshlar bir-birlariga savol beradilar va savollarga javob qaytaradilar. Bu suhbat ma`ruzadan farq qiladi. Ma`ruza monologik nutqdir.

Muhokama. - Ma`lum bir masala yuzasidan ko`pchilikni fikrini to`plashni, ma`lum to`xtamlarga kelishni anglatadi.

Munozara. - Biror masala yuzasidan taraflarning baxsini, tortishuvini anglatadi. Baxs jarayonida har bir ishtirokchi o`zining haq ekanligini isbotlashga intiladi.

**Notiqona so`zlash.** Aytilayotgan fikrning tinglovchiga etib borishi va uning xulqiga ta`sir etishi notiqning so`zlash mahoratiga bog`liqdir. Notiqona nutqni maqsadi va xususiyatlariga ko`ra tashvikiy, tanqidiy, tabrik nutqlariga ajratish mumkin.

Tashvikiy nutq deb muallif ko`zda tutgan biron voqea-hodisani bajarishga tinglovchilarni da`vat etuvchi, undovchi nutqqa aytiladi. Tashvikiy nutqda xalq xayotidan, tarixidan, odat, udumlardan va barcha vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Tanqidiy nutq yuz bergan hodisalar, shaxslarning xatti-harakatlariga e`tirozli munosabatda bo`luvchi nutq tanqidiy nutq deyiladi.

Tabrik nutqi to`ylarda, tantanalarda, yubileylarda, tug`ilgan kunlarda so`zlanadigan nutq tabrik nutqidir. Tabrik nutqi shaxs va hodisalarning yaxshi xususiyatlarini ko`rsatishga, ularni maktashga qaratilgan bo`ladi.

Fikrni yozma bayon etish.

Bayon berilgan matn mazmunini o`z so`zlari bilan qayta yozishdir. Bayonda berilgan matn asosida yangi matn yaratiladi.

Saylanma bayon. Berilgan matndan ma`lum mavzuga mos saylab foydalanib yozilgan bayon saylanma bayon deyiladi. Tuliq bayon etilganda, uning kerakli joylari haqida gapiriladi, holos.

Konspekt bayonning ko`rinishlaridan biridir. Konspekt 3 xil bo`ladi: tuliq, qisqa, tezisli. **To`liq** konspektida matnning mazmuni muallif fikrlariga ba`zi bir izohlovchi gaplar kiritilishi orqali keng bayon qilib beriladi. **Qisqa** konspektida matndagi eng muhim deb hisoblangan fikrlar bayon etiladi. **Tezisli** konspekt manbaning asosiy qoidalarini, eng muhim fikrlarini ajratib olishdir.

Siqiq xulosa ma`ruza yoki boshqa asarlarda keng va atroflicha dalillar bilan bayon etilgan fikrlarning 3-4 gapli yakunidir.

Annotatsiya. Badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir.

Otziv (fikir) saylanma bayonning yana bir turi otzivdir. U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir.

Referat. Biror ilmiy, metodik, pedagogik mavzudagi asarning qisqacha mazmuni haqidagi bayon referat hisoblanadi.

Sharh (obzor) referat ilmiy va boshqa asarlarga sharh berish, ya'ni uning umumiy xususiyatlarini qisqacha bayon qilib berishni ko'zda tutadi.

Biografiya va avtobiografiya. Kishilarning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi bayon biografiya deyiladi.

Tavsifnoma kishilarning ijtimoiy faoliyati, jamiyatda tutgan o'rni haqidagi muhokama tarzida aytilgan yoki yozilgan bayon tavsifnoma deyiladi.

Intervyu. Matbuotda e`lon qilish, radio eshittirish yoki televideniyeda foydalanish uchun muxbirlarni biror kishi bilan o'tkazgan suhbat, shu suhbatning matbuotda e`lon qilingan matni intervyu deb ataladi.

**Ma`ruza.** "Ma`ruza" so'zi odatda, ikki ma`noda ishlatiladi:

1. Rahbar yoki boshlikka og'zaki yoxud yozma berilgan axborot.
2. Biror mavzu yuzasidan jamoatchilik oldida berilgan axborot.

Leksiya. Oliy o'quv yurtlarida, omma oldida biror mavzu yuzasidan bayon tarzda o'tkaziladigan dars yohud mashg'ulotdir. Shu mashg'ulotda tinglangan nutq ham leksiya deb yuritiladi.

Leksiya ikki xil:

1. Monolog leksiya.

2. Dialog leksiya.

Monolog leksiyada notiq ma'lum mavzu bo'yicha o'zi bilgan narsalar haqida so'zlaydi. Dialog leksiya tinglovchilarning faol ishtirokida o'tadi.

Hisobot. Xizmatga doir ma'lumot va mulohazalardan iborat hujjat bo'lib, unda biror yumush, biror soha bo'yicha qilingan ishlar haqida xabar beriladi.

Maktub. Bir kishining boshqa bir kishiga ma'lum qilgan o'z axvoli, ichki kechinmalari yoki yuz bergan voqea-hodisalar haqidagi xabaridir.

Kundalik. Kishilar shu kungi hayotini, yuz bergan voqea-hodisalarni keyin eslash maqsadida xotira yozib boradilar.

